


BOBUR KUTUBXONASI

MA'NAViy - MA'RIFIY JURNAL • ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИЙ ЖУРНАЛ



1/2026

ISSN 2181-3280



- ▶ 3-bet 2025-yil: raqamlar va faktlar
- ▶ 5-bet “Boburnoma” asarida boshqaruv madaniyati va siyosiy tafakkur tahlili
- ▶ 11-bet “Boburnoma”da davr siyosiy-ijtimoiy muhitining aks etishi
- ▶ 15-bet Bobur she’riyati
- ▶ 32-bet Bobur she’riyatida janr xususiyatlari va poetik shakllar

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR

O'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili, «Boburnoma» asari muallifi, tarixchi, geograf, davlat arbobi, iste'dodli shoir va boburiylar sulolasi asoschisi



Hayot yo'li

- **1483**
Andijonda tavallud topgan
- **1497-1501**
Samarqandni egallash uchun bir necha bor kurashdi, ammo siyosiy beqarorlik sabab uni saqlab qola olmadi.
- **1504**
Qobulni egallab, kelajakdagi yurishlar uchun mustahkam tayanch yaratdi.
- **1526**
Panipat jangida g'alaba qozonib, Hindistonda Boburiylar davlatiga asos soldi.
- **1527**
Xonva jangidagi g'alaba uning shimoliy Hindistondagi mavqeini kuchaytirdi.
- **1530**
Agrada vafot etdi. Uning siyosiy va adabiy merosi keyingi asrlarga kuchli ta'sir ko'rsatdi

Qisqacha ma'lumot

Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yilning 14-fevralida Andijonda, Farg'ona ulusining hokimi Umar Shayx Mirzo oilasida dunyoga keldi. Bu davrda Markaziy Osiyo va Xurosonda turli hokimlar, aka-ukalar, tog'a-jiyanlar, amakivachchalar o'rtasida hokimiyat ulug' bobolari Amir Temur tuzgan yirik davlatga egalik qilish uchun kurash nihoyat keskinlashgan edi.

Zahiriddin Muhammad Bobur o'rta asr Sharq madaniyati, adabiyoti va she'riyatida o'ziga xos o'rin egallagan adib, shoir, olim bo'lishi bilan birga yirik davlat arbobi va sarkarda hamdir. Bobur keng dunyoqarashi va mukammal aql-zakovati bilan Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos solib, bu mamlakat tarixida davlat arbobi sifatida nomi qolgan. U asos solgan Boburiylar davlati keyingi hukmdorlar davrida yirik imperiyaga aylandi.

Ijodiy va merosi

- Serjilo o'zbek tilida yozilgan "Boburnoma" asari bilan jahonning mashhur tarixnavis olimlari qatoridan joy oldi.
- "Boburnoma" memuar turkiy nasrning yirik namunasi bo'lib, tarix, tabiat, siyosat va shaxsiy kuzatuvlarni birlashtiradi.
- U chig'atoy turkiy tilida ijod qilgan, she'rlar va ruboiylar yozgan.
- Bobur shaxsida sarkardalik va ijodkorlik uyg'unlashgan: u jang maydonida qat'iyatli, adabiyotda esa kuzatuvchan va nozik didli edi.

Xulosa

Bobur nomi bugun O'zbekiston, Afg'oniston va Hindiston tarixiy xotirasida muhim o'rin tutadi. Uning asarlari ham tarixiy manba, ham badiiy meros sifatida qadrlanadi.

Axborot-kutubxona markazi tomonidan
2022 yildan nashr qilinmoqda.

Har chorakda chop etiladi
-o'zbek, rus va ingliz tilida

Tahrir kengashining raisi

G. Ismailova

Muharrir

O. Axunjanova

Texnik muharrir

I. Muxtarov

Kengash a'zolari

U. Teshabayeva - tarix fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD)


N. Kosimova - professor, psixologiya fanlari
nomzodi, dotsent.

B. Yarkinova - filologiya fanlari nomzodi,
dotsent.

S. Mamajonov - tarix fanlar nomzodi, dotsent



**Bobur nomidagi Andijon viloyati
axborot-kutubxona markazi**



Духовно-просветительский журнал

Издаётся Андижанским областным инфор-
мационно - библиотечным центром имени
Бабура с 2022 года

Выходит ежеквартально
на узбекском, русском, английском языках.

Председатель редакционного Совета

Г. Исмаилова

Редактор

O. Axunjanova

Технический редактор

I. Muxtarov

Члены Совета

У. Тешабаева — доктор философских наук
по истории (PhD)

Н. Косимова — профессор, кандидат
психологических наук, доцент.

Б. Яркинова — кандидат филологических
наук, доцент.

С. Мамажонов - кандидат исторических
наук, доцент.

MUNDARIJA

Gulnoraxon Ismailova 2025-yil: raqamlar va faktlar.....	3
«BOBURNOMA» — TARIXIY MEROS To‘lanboy Razzaqov “Boburnoma” asarida boshqaruv madaniyati va siyosiy tafakkur tahlili.....	5
Odinaxon Ismoilova Zahiriddin Muhammad Boburning tarixiy tafakkuri va “Boburnoma”da davr siyosiy- ijtimoiy muhitining aks etishi.....	11
“BOBURNOMA” POETIKASI Barchinoy Yarkinova Bobur she‘riyati.....	15
O‘tkirbek Muhammad Sobir Bobur lirikasida irfoniy ishq poetikasi.....	19
“BOBURNOMA”NING QOMUSIY XARAKTERI Nargiza Saloxiddinova “Boburnoma” yuksak badiiy asar namunasi sifatida.....	25
Gulnoraxon Omanova З.М.Бобур – многогранный наследник, достойный династии темуридов.....	28
Mohinur Abdurahmonova Bobur she‘riyatida janr xususiyatlari va poetik shakllar.....	32
ADABIY PSIXOLOGIYA Nargiza Kosimova Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsi va ijodining psixologik hamda metodologik tahlili.....	35
Durdona Abdusalomova “Boburnoma” va Bobur g‘azallarida muallif “Meni”	40
BOBUR MEROSI VA MADANIYATLARARO ALOQALAR Daniyarbek Xaydarov Творчество и культурный вклад Захириддина Бабура в Индии.....	45

Jurnal 2021 yil 17 sentyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan № 1212 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Jurnaldan ko‘chirib bosilganda «Bobur kutubxonasi» ma‘naviy-ma‘rifiy jurnalidan olinganligi ko‘rsatilishi shart.

Bosmaxonaga 10.03.2026 yilda berildi.
Bosishga 17.03.2026 yilda ruxsat berildi.
Qog‘oz formati 60x84 1/8.
Nashriyot hisob tabog‘i 6,5.
Adadi 50 dona.

Jurnal «BIZNES POLIGRAF» M.CH.J bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent, Chilonzor tumani
Katta qozirobod 65-uy.
Tel: +998 91 135-76-73

ALOQA UCHUN MA‘LUMOT:

Manzil: Andijon sh.,
A.Fitrat ko‘chasi, 232-uy.
Tel.: 74-223-79-80
Veb-sayt: jurnal.libbobur.uz
Telegram: t.me/andakmbot
Veb sayt: andijan.natlib.uz

2025-yil: raqamlar va faktlar



GULNORAXON ISMAILOVA

Bobur nomidagi Andijon viloyati
axborot-kutubxona markazi
direktori

2025-yil davomida Andijon viloyati axborot-kutubxona markazi aholi o'rtasida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, yoshlarni ma'naviy-ma'rifiy jihatdan qo'llab-quvvatlash hamda zamonaviy axborot xizmatlarini kengaytirish yo'nalishida samarali faoliyat olib bordi.

Kutubxona jamg'armasini boyitish ishlari izchil davom ettirildi. Yil davomida kutubxona fondi badiiy, ilmiy-ommabop, o'quv va sohaviy adabiyotlar bilan to'ldirildi. Kitobxonlar talabini inobatga olgan holda yangi nashrlar xarid qilinib, foydalanuvchilar ixtiyoriga taqdim etildi. Bu esa kitobxonlarga turli sohalar bo'yicha zarur bo'lgan axborot va bilimlarni olish imkoniyatini yaratdi.

Kitobxonlarning qiziqishlari va ehtiyojlarini o'rganish maqsadida muntazam so'rovnomalar o'tkazilib, tahlil ishlari olib borildi. Tahlillar natijasiga ko'ra, yoshlar o'rtasida ijtimoiy, ilmiy-ommabop va badiiy adabiyotlar, tarixiy asarlar,

milliy va jahon adabiyoti namunalariga bo'lgan qiziqish yuqori ekani kuzatildi. Shu bilan birga, axborot texnologiyalari, tadbirkorlik va shaxsiy rivojlanishga oid adabiyotlarga ham talab ortib borayotgani aniqlandi.

- Kutubxona faoliyatini takomillashtirish, kitob jamg'armasini boyitish va kitobxonlarga sifatli xizmat ko'rsatish maqsadida markaz kitob jamg'armasi kitobxonlarning qiziqishlari, talabi va ehtiyojlariga asosan 5 163 nusxa milliy va jahon adabiyotining eng sara asarlari bilan to'ldirildi;

- 2025-yil davomida 8 316 nafar kitobxon kutubxonaga yangi a'zo bo'ldi. Yil yakuniga kelib foydalanuvchi kitobxonlar soni 70 mingdan ortib ketdi. Ulardan 66 foizi yoshlar hissasiga to'g'ri keladi;

- Kutubxonaga tashriflar soni 258 523 ni tashkil etdi. Undan an'anaviy kelib foydalanganlar 191 614 nafarni, masofadan turib

elektron ma'lumotlar bazasidan foydalanganlar 66 821 tani tashkil qildi;

- Kitobxonlar tomonidan jami 1 342 149 nusxa adabiyotlar va axborot resurslari o'qildi. Undan kitoblar 619 327 nusxa, jurnallar 43 851 nusxa, gazetalar 97 503 nusxa, boshqa resurslar 585 468 nusxani tashkil qiladi. Bu ko'rsatkichlar aholi o'rtasida kitobga bo'lgan qiziqishning yil sayin ortib borayotganini ko'rsatadi.

Shuningdek, axborot-kutubxona markazida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari yanada kengaytirildi. Elektron kataloglar, raqamli axborot resurslari va internet xizmatlari orqali kitobxonlarga tezkor va qulay xizmat ko'rsatish va kutubxona faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda:

- Yil davomida 3 889 nomda (1 100 234 sahifa) kitoblar, 3 969 nusxa (36 749 sahifa) gazeta va 85 nomda (6 631 sahifa) jurnallar raqamlashtirilib, elektron bazaga joylashtirildi;

- Axborot-kutubxona markazi respublikaning yig'ma elektron bazasini yaratishda faol ishtirok etmoqda. Hisobot yili davomida kutubxonachilar tomonidan 16 480 ta bibliografik yozuvlar yaratildi, 4 569 ta bibliografik yozuvlar tahrir qilindi;

- Kutubxonaning rasmiy sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalariga jamg'armaga olinayotgan yangi kitoblarni va mutolaani targ'ib etuvchi hamda ish faoliyatiga oid 11 179 ta kontentlar qo'yib borildi.

Korxonalar, tashkilot, mahalla fuqarolar yig'inlari va ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda aholi, ayniqsa yoshlarni kutubxonalarga jalb qilish, kitobxonlikni keng targ'ib qilishga qaratilgan 500 dan ortiq turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etildi. Albatta bu tadbirlar yoshlar o'rtasida kitobga bo'lgan muhabbatni oshirish, ularda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, milliy qadriyatlar va ma'naviy-adabiy meroslarimizni targ'ib qilishga xizmat qilmoqda.

- 173 marta adabiy kechalar, kitob taqdimotlari, anjumanlar, «Zakovat» intellektual o'yinlari, ijodiy uchrashuvlar, kitobxonlik tanlovlari, davra suhbatlari va turli madaniy

tadbirlar o'tkazildi;

- Respublikada va xorijda nashr etilgan, kutubxona jamg'armasiga olingan kitoblarni keng targ'ib qilish uchun 172 marta kitob ko'rgazmalari tashkil qilindi;

- 160 marotaba kutubxona bo'ylab ekskursiyalar tashkil etildi.

Axborot-kutubxona markazi ish faoliyatini va undagi axborot resurslarini keng targ'ib qilish maqsadida Respublika Prezidenti tavsiyasiga ko'ra ro'yxatdan o'tkazilgan "Bobur kutubxonasi" ma'naviy-ma'rifiy jurnalining 1, 2, 3, 4-sonlari nashrdan chiqarilib kitobxonlar e'tiboriga havola etildi.

Kutubxonada faoliyat olib borayotgan "Kutubxona ikkinchi oilam", "Zukko bilimdonlar", "Ayollar dunyosi" klublari tomonidan yil davomida aholini kitobxonlikka jalb qilish, yoshlarda liderlik qobiliyatini shakllantirish, iqtidorini namoyon qilishga ko'maklashish maqsadida 100 dan ortiq mashg'ulotlar va tadbirlar o'tkazildi.

"Ayollar dunyosi" klubi faollari tashabbusi va harakati bilan O'zbekiston Xalq shoiri Muhammad Yusuf ijod namunalaridan shoir va tarjimon Valeriy Rayxel tarjimasidagi "Tekuchaya k solnsu voda" nomli kitob chop etkazilib kitobxonlar e'tiboriga havola etildi.

Xulosa qilib aytganda, 2025-yil Andijon viloyati axborot-kutubxona markazi faoliyatida muhim natijalarga erishilgan yil bo'ldi. Amalga oshirilgan ishlar aholi o'rtasida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, kitobga bo'lgan qiziqishni oshirish va axborot xizmatlarini yanada takomillashtirishga xizmat qildi. Kelgusida ham kutubxona faoliyatini yanada rivojlantirish, kitobxonlar uchun keng imkoniyatlar yaratish va zamonaviy axborot xizmatlarini takomillashtirish borasidagi ishlar izchil davom ettiriladi.

*“Boburnoma”
asarida boshqaruv
madaniyati va
siyosiy tafakkur
tahlili*



TO'LANBOY RAZAQOV

**“University of economics and pedagogy”
NOTM rektori**

Аннотация: В данной статье анализируется «Бабур-наме» Захириддина Мухаммада Бабура как основа управленческой культуры и политической мысли. На основе исторических примеров освещаются такие аспекты управления, как процесс принятия решений правителем, военно-дисциплинарное управление, вопросы ресурсов и снабжения, обеспечение внутренней безопасности, дипломатические отношения и институты управления, такие как «диван». Демонстрируется, что политическая мысль Бабура основывается на принципе «совет – указ – исполнение – контроль». В исследовании проводится сравнительный анализ взглядов Бабура с политическими теориями Аристотеля, Низам аль-Мулька, Макиавелли и Макса Вебера. В результате обосновывается, что «Бабур-наме» является не только историческим мемуаром, но и важным источником, отражающим революцию в культуре государственного управления и политической мысли.

Ключевые слова: Бабурнаме, Захириддин Мухаммад Бакур, культура управления, политическое мышление, совет (машварат), указ (фармон), система дивана, государственное управление, легитимность, военная дисциплина, дипломатия.

“Boburnoma” Sharq mumtoz adabiyotida tarixiy-memuar janrining yuksak namunasi sifatida alohida ilmiy-estetik qadriyatga ega bo‘lib, u nafaqat XV–XVI asrlar siyosiy voqealarining hujjatli tasviri, balki hukmdor shaxsining boshqaruv tafakkuri va davlat idorasi haqidagi qarashlarini aks ettiruvchi manba sifatida ham e’tirof etiladi. Asarda Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zini shoir va muarrix sifatida emas, avvalo, real tarixiy jarayonlar ichida shakllangan davlat rahbari, lashkarboshi hamda siyosiy arbob sifatida namoyon qiladi. “Boburnoma”ning manbashunoslikdagi ahamiyati shundaki, unda muayyan tarixiy epizodlar oddiy xronologik bayon tarzida emas, balki hukmdorning strategik qarori, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni idrok etish darajasi, murosaga kelish yoki qarshilik ko‘rsatish yo‘lini tanlashi kabi murakkab boshqaruv muammolari bilan uzviy bog‘liq holda yoritiladi. Shu bois, “Boburnoma”ni faqat tarixiy yodnoma sifatida emas, balki o‘sha davr siyosiy madaniyati va amaliy boshqaruv tajribasini ifodalovchi “davlat tafakkuri matni” sifatida talqin etish ham maqsadga muvofiqdir.

Asarda davlat boshqaruvi masalalari keng qamrovda ochiladi: qaror qabul qilishning shart-sharoitga bog‘liqligi, tartib-intizomni saqlashning siyosiy zarurati, resurs va ta‘minot (iqtisodiy asos)ning harbiy va ijtimoiy barqarorlikka ta‘siri, harbiy yurishlarning rejalashtirilishi hamda ichki va tashqi siyosiy munosabatlar muammosi kabilar “boshqaruv amaliyoti”ning tarkibiy qismlari sifatida namoyon bo‘ladi. Bobur voqelikni faqat kuzatuvchi emas, balki aynan davlat mexanizmining markazida turgan shaxs sifatida baholaganligi uchun “Boburnoma” hukmdor mas‘uliyati, siyosiy tavakkal va strategik fikrlashning tabiati haqidagi muhim xulosalarni o‘z ichiga oladi. Jumladan, u lashkar intizomi susayishi, hukmdorlar va amaldorlar o‘rtasidagi nizolar kuchayishi, iqtisodiy bazaning zaiflashuvi kabi omillar davlatning ichki tanazzuliga olib kelishini real tarixiy misollar bilan ko‘rsatadi. Bunday holatlarning qayd etilishi “Boburnoma”ni siyosiy tarix bilan bir qatorda boshqaruv madaniyati tarixi uchun

ham muhim manbaga aylantiradi.

Siyosiy tafakkur tushunchasi esa faqat davlatni boshqarish texnikasi emas, balki hokimiyatni qonuniylashtirish (legitimlik), tartib va nizomni mustahkamlash, adolatni siyosiy hayotning mezonini sifatida belgilash, harbiy-intizomiy nazoratni qo‘llash, diplomatik murosalar orqali manfaatni himoya qilish kabi masalalarga doir konseptual qarashlarni o‘z ichiga oladi.



“Boburnoma”da bu masalalar “mashvarat–farmon–ijro–nazorat” zanjiri orqali hayotiy dalillar bilan yoritiladi: hukmdor avval vaziyatni tahlil qiladi, so‘ng maslahatlashadi (mashvarat), keyin siyosiy buyruq beradi (farmon), uning amaliy natijalarini kuzatadi (ijro), zarur bo‘lsa tartib va adolatni tiklash uchun qayta nazorat mexanizmini ishga soladi. Demak, Bobur siyosiy tafakkuri o‘z mohiyatiga ko‘ra faqat nazariy g‘oya emas, balki real boshqaruv tajribasida sinovdan o‘tgan amaliy qarashlar tizimidir.

Nazariy jihatdan bu holatni klassik siyosiy tafakkur namunalari bilan qiyoslash mumkin. Jumladan, Aristotel “Siyosat” asarida davlatni umumiy manfaatni ko‘zlovchi tizim sifatida ko‘rib, boshqaruvning poydevori sifatida adolat va tartib g‘oyasini ilgari suradi [1]; Nizomulmulk “Siyosatnoma”da hukmdorning asosiy vazifasi xalq manfaatini himoya qilish, amaldorlarni nazorat qilish va zulmning oldini olish ekanini ta’kidlaydi [2]; Makiavelli esa hokimiyatni saqlashda kuch, irodaviy qat’iyat va siyosiy pragmatizmni muhim omil sifatida baholaydi [3]. Bobur tajribasida mazkur nazariy yo‘nalishlarning muayyan jihatlari uyg‘unlashadi: u kuchni davlatni saqlab qolish zarurati sifatida e’tirof etadi, biroq bu kuchning legitimligi va samaradorligini adolat, mas’uliyat hamda tartib bilan nazorat qilishga intiladi. Shu bois “Boburnoma”dagi siyosiy tafakkur faqat hukmdorning shaxsiy qarashlari emas, balki murakkab tarixiy sharoitda shakllangan davlatparvarlik va boshqaruv madaniyati tajribasi sifatida ilmiy tahlilga munosibdir.

Boshqaruv madaniyati “Boburnoma”da sof nazariy mulohazalar tarzida emas, balki tarixiy voqealar oqimi ichida yuzaga kelgan real tajriba sifatida namoyon bo‘ladi. Bobur hukmdor sifatida davlatni idora etish jarayonida inson omili — lashkar ruhiyati, sadoqat va xiyonat, qo‘rquv va irodasizlik, siyosiy qarorlarning omma tomonidan qabul qilinishi kabi psixologik hamda ijtimoiy omillarning hal qiluvchi o‘rnini ochiq aks ettiradi. Bu holat Boburning boshqaruv tizimini faqat buyruq va farmonlar mexanizmi emas, balki jamoaviy intizom va ichki bo‘ysunish madaniyatiga tayanadigan murakkab boshqaruv modeli sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Xususan, qo‘shin tartibsizlanib, birdaniga chekinib ketgan vaziyat tasvirida hukmdorning nazorati ijtimoiy-psixologik omillar ta’sirida zaiflashgani kuzatiladi. Bobur bu jarayonni shunday ifodalaydi: “...g‘ofil va uyquluq el bir yo‘li-o‘q bir-biriga boqmay duvurlab qocha berdilar. Men elni tiyguncha fursat ham bo‘lmadi...”. Bu parchada harbiy boshqaruv madaniyatining muhim muammosi — keskin vaziyatda intizomning tez buzilishi va ommaviy ruhiy “tarqoqlik”ning hukmdor irodasini cheklab qo‘yishi yaqqol namoyon bo‘ladi [4]. Mazkur iqtibos Bobur siyosiy tafakkurining muhim xususiyatini ko‘rsatadi: hokimiyatning kuchi faqat buyruq chiqarish imkoniyati bilan emas, balki jamoa (qo‘shin)ning ichki intizomi va bo‘ysunishga tayyorligi bilan belgilanadi. Bu jihat Maks Veber nazariyasidagi legitimlik va bo‘ysunish mexanizmlari bilan mushtarakdir: Veberga ko‘ra, hokimiyatning barqarorligi ko‘p jihatdan jamiyatning hukmdor hokimiyatini ichki qabul qilishi va itoatning institutsional-psixologik asoslariga bog‘liq bo‘ladi [5]. “Boburnoma”dagi mazkur epizod esa Bobur tajribasida bu ichki bo‘ysunish ayrim holatlarda yemirilishi, natijada boshqaruvning real amaliyoti murakkablashishini ochiq tasdiqlaydi.

Bobur siyosiy tafakkurida davlat barqarorligini ta’minlovchi eng muhim tayanch omillardan biri — ta’minot va resurs masalasidir. “Boburnoma”da hokimiyat faqat harbiy qudrat yoki siyosiy iroda bilan emas, balki iqtisodiy asos (ta’minot, oziq-ovqat, lashkar ehtiyoji, moddiy resurslar) bilan uzviy bog‘liq holda talqin qilinadi. Muallifning kuzatuvlari shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy bazis zaiflashgan sharoitda harbiy kuchning saqlanib qolishi qiyinlashadi, natijada siyosiy barqarorlik ham izdan chiqish

[1]. Аристотель. Политика // Аристотель. Сочинения: В 4 т. — М.: Мысль, 1983. — Т. 4. — С. 376–644.

[2]. Низам ал-Мульк. Сиасет-намэ: [Книга о правлении вазира XI-го столетия Низам ал-Мулька] / пер. Б. Н. Заходера. — М.; Л.: Изд-во Академии наук СССР, 1949. — 383 с.

[3]. Макиавелли, Н. Государь. — СПб.: Азбука; Азбука-Аттикус, 2023. - 140 с.

[4]. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. — Toshkent: O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1960. — 514 b.

[5]. Вебер, М. Хозяйство и общество: [очерки понимающей социологии:] в 4 т. — М.: Изд. дом Высшей школы экономики, 2019. - 539 с.

xavfiga duch keladi. Shu ma'noda Bobur davlat boshqaruvini idealistik tasavvur emas, balki real sharoit va amaliy imkoniyatlarga tayanuvchi tizim sifatida ko'rsatadi.

Xususan, Samarqand zabt etilgandan keyingi vaziyat tasvirida resurs tanqisligi davlat boshqaruviga bevosita tahdid sifatida namoyon bo'ladi. Bobur bu holatni nihoyatda ochiq va real tarzda qayd etadi: "Bu jihatlarin cherik eli ko'p tanqisliq torttilar. Biz ham elga nima yetkura olmaduk" [1, b. 3]. Mazkur parcha hukmdor uchun eng og'ir masalalardan biri — qo'shin va aholi ehtiyojini qondirishga resurs yetishmasligi, ta'minot uzilishi natijasida boshqaruvning ichki mexanizmlari susayishi mumkinligini ko'rsatadi.

Ushbu iqtibos orqali Boburning boshqaruv madaniyati ikki yo'nalishda yaqqol ko'rinadi. Birinchidan, muallif hukmdor sifatida mavjud ahvolni bezamasdan, "propagandasiz" tan oladi, ya'ni harbiy g'alabadan keyingi murakkab iqtisodiy sharoitni yashirmaydi. Ikkinchidan, Bobur ta'minotsiz davlatning kuchsizlanishi muqarrarligini angelaydi: resurs yetishmasa, lashkar birligi va sadoqati zaiflashadi, natijada hokimiyatning amaliy tayanchi sinadi. Bu jarayonni shartli mantiqiy zanjir orqali ifodalash mumkin: "ta'minot yo'q" → "lashkar tarqaladi" → "hokimiyat izdan chiqadi".

Mazkur mulohazalar Sharq siyosiy tafakkuridagi Nizomulmulk qarashlari bilan hamohangdir. "Siyosatnoma"da davlatning mustahkamligi moliya intizomi, idora tizimining tartibi va nazorat mexanizmlariga bog'liq ekani ta'kidlanadi. Bobur esa bu g'oyani nazariy qoida sifatida emas, balki tarixiy voqealar fonida amaliy tajriba orqali tasdiqlaydi: Samarqand kabi strategik markazning qo'lga kiritilishi o'zi kifoya emas; agar iqtisodiy baza va ta'minot tizimi mustahkamlanmasa, siyosiy g'alaba barqaror natijaga aylanmaydi.

"Boburnoma"da boshqaruv amaliyotining eng muhim instrumentlaridan biri — farmondir. Farmon Bobur tajribasida shunchaki quruq buyruq yoki formal hujjat emas, balki ma'lum vaziyatni chuqur tahlil qilish, kuchlar nisbatini hisobga olish hamda davlat manfaatini ("salohi

davlat") ko'zlash orqali shakllanadigan siyosiy qaror sifatida namoyon bo'ladi. Bu jihat Boburning boshqaruv madaniyati irodaviy qat'iyat bilan birga siyosiy ehtiyotkorlik va strategik hushyorlikka tayanishini ko'rsatadi.

Bobur salotin va umaroga yo'llagan farmonlarida aynan davlat manfaatiga mos yo'lni tanlash g'oyasini ustuvor qo'yadi: "...jami' salotin va umarog'a farmon bo'ldikim... har soriğa salohi davlat bo'lsa... mutavajjih bo'lg'ay". Mazkur iqtibos Bobur siyosiy tafakkuridagi markaziy tamoyilni ochadi: davlatni boshqarishda qaror subyektiv istak yoki hissiyotga emas, balki davlat manfaatiga mos (salohi davlat) strategiyaga asoslanishi kerak. Bunda farmon hokimiyatning bir tomonlama zo'ravon amri sifatida emas, balki siyosiy maqsadni belgilovchi va ijroga yo'naltiruvchi "boshqaruv mexanizmi" sifatida ko'rinadi.

Shuningdek, Bobur ko'plab vaziyatlarda qarorni yakka hukm sifatida emas, balki mashvarat orqali pishitadi. Harbiy strategiyani belgilash jarayonida u turk va hind umarolarini jamlab, maslahatga tayanadi: "...turk va hind umarosini charlab, mashvarat qilib, so'zni munga qo'yuldikim, bu yil... bir sori cherik yurumoq kerak...". Bu parchada boshqaruv madaniyatining ikki muhim unsuri yaqqol ko'rinadi: birinchisi — kollegial maslahat (mashvarat), ikkinchisi esa — qaror va ijro birligi (strategiyani belgilash va uni amalda bajarish). Mazkur holat Aristotel siyosiy tafakkuridagi "davlat maslahat va muvofiqlashtirish bilan yashaydi" degan prinsipga yaqin bo'lib, Boburda bu tamoyil amaliy boshqaruv tajribasi sifatida yuzaga chiqadi.

Bobur boshqaruv madaniyatida intizom shaxsiy axloqiy talab darajasida emas, balki davlat barqarorligini ta'minlovchi siyosiy mexanizm sifatida talqin qilinadi. Chunki u yashagan davr sharoitida davlatni saqlash masalasi bevosita qo'shin tartibi, harbiy bo'linmalar boshqaruvi va kuchlarning uyushqoqligiga bog'liq edi.

Bobur jang oldidan qo'shinni tartib bilan joylashtirishga alohida urg'u beradi: "...vali xili

yaxshi tuzukga mazbut yasal ta'biya va tartib qilib edim. Hech mahal oncha tartib va nasaq bila yasamaydur edim...". Ushbu iqtibosdan ko'rinadiki, Bobur boshqaruv madaniyatida "tuzuk", "tartib" va "nasaq" tushunchalari harbiy yutuqning tasodifiy natijasi emas, balki oldindan rejalashtirilgan tashkilotchilik faoliyati sifatida shakllanadi.

Muallif qo'shin boshqaruvini ichki strukturaga ajratish orqali kuchaytiradi, ya'ni harbiy bo'linmalarni mayda birliklarga bo'lib, ularning boshliqlarini tayinlaydi: "...tamom o'n-o'n va ellik-ellik bitilib... o'n ulug'i va ellik ulug'i ta'yin etib edim". Bu jarayon Bobur siyosiy tafakkurining amaliy tashkiliy madaniyatga aylanganini ko'rsatadi: davlat kuchi ko'plikda emas, balki tartibli strukturada, bo'ysunish zanjiri va mas'uliyat taqsimotida namoyon bo'ladi.

Bobur boshqaruvini faqat harbiy yurishlar va siyosiy raqobat bilan cheklanmaydi. "Boburnoma"da ichki barqarorlikni ta'minlash uchun hududda tartib o'rnatish, jinoyatchilikni jilovlash, xalq bilan muomala madaniyatini shakllantirish masalalari ham muhim komponent sifatida ko'rsatiladi. Bu jihat boshqaruv madaniyatining "ichki xavfsizlik" o'lchovini belgilaydi.

Bobur bu masalada aniq farmon beradi: "beklariga farmon bo'ldikim, qaroq va o'grini man' qilib, yaxshi maosh va ixtilot qilg'aylar". Mazkur iqtibosda boshqaruv madaniyati uch yo'nalishda ko'rinadi: birinchidan, xavfsizlikni ta'minlash (qaroq va o'grini man qilish); ikkinchidan, iqtisodiy boshqaruv (maosh masalasi); uchinchidan esa ijtimoiy muomala ("ixtilot" — xalq bilan aloqani yo'lga qo'yish). Veber nazariyasi doirasida bu holat legal-ratsional boshqaruv elementiga yaqinlashadi: hokimiyat faqat kuch bilan emas, balki tartib, nazorat va tizim orqali legitimlikni mustahkamlashga intiladi.

"Boburnoma"da davlat moliyasi, harbiy ehtiyoj va sarf-xarajat nazorati masalalari boshqaruv madaniyatining institutlashgan shakli sifatida ko'rinadi. Bobur "devon" tizimini

qo'llashi orqali davlatning faqat farmon bilan emas, balki hisob-kitob, taqsimot va rasmiy nazorat mexanizmlari bilan yuritilishini ko'rsatadi. Muallif bu holatni quyidagicha qayd etadi: "...sadu siy farmon bo'ldikim, devonga tushurub, bu asbob va olotqa sarf va xarj qilg'aylar". Ushbu parcha Bobur boshqaruvida moliyaviy tartibning mavjudligini anglatadi: resurslar tasodifiy sarflanmaydi, balki devon orqali rasmiylashtiriladi va taqsimlanadi. Shu tariqa "Boburnoma"da boshqaruvning institutsional (tashkiliy-huquqiy) shakli ham kuzatiladi.

Bobur siyosiy munosabatlarda kuch bilan bir qatorda muomala madaniyatini ham siyosiy barqarorlik omili sifatida baholaydi. Diplomatik maktublashuvdagi ohang, rasmiy muomala shakli, ramziy ishoralar (masalan, muhrning joylanishi) ham siyosiy muammolarni keskinlashtirishi mumkinligini muallif ochiq ko'rsatadi.

Buni Bobur quyidagi epizodda aniq ifodalaydi: "...qog'ozning o'rtasida muhr bosib yuboribtur. Agar mundoq rustoyina harakatlar qilmasa erdi... ish munğa yetmas edi". Bu iqtibosda siyosiy tafakkurning muhim qirralari aks etadi: diplomatiyada "shakl" ham mazmun kabi kuchlidir; muomala madaniyati buzilsa, siyosiy aloqalar keskinlashadi. Machiavelli siyosiy ramz va diplomatik strategiyani hokimiyatni saqlash vositasi sifatida talqin qilgani kabi, Bobur ham rasmiy muomala detallarini siyosiy "signal" sifatida tushunadi.

Yuqoridagi tahlillar asosida "Boburnoma"dagi boshqaruv madaniyati va siyosiy tafakkur quyidagi ilmiy xulosalarni beradi:

Bobur boshqaruvni ideal nazariya sifatida emas, balki real tarixiy tajriba va sinov maydoni sifatida yoritadi.

Davlatni saqlashda asosiy omillar resurs, ta'minot, intizom va tizimli boshqaruvga bog'liq.

Farmonlar mashvarat va "salohi davlat" tamoyiliga tayanib, siyosiy qarorning strategik asosini belgilaydi.

Harbiy boshqaruvning negizi "tuzuk", "tartib" va "nasaq" kabi tashkilotchilik omillarida

mujassam.

Ichki xavfsizlik (jinoatchilikka qarshi nazorat) davlat barqarorligining amaliy o'lchovi sifatida talqin qilinadi.



“Devon” tizimi orqali moliya va sarf-xarajatning tartibli yuritilishi boshqaruvning institutsional shaklini anglatadi.

Diplomatik muomala va rasmiy munosabat madaniyati siyosiy barqarorlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Umuman olganda, Bobur siyosiy tafakkuri Sharqona “adolat–tartib–mas'uliyat” tizimi bilan G'arbona “strategiya–pragmatizm” yo'nalishi kesishgan nuqtada shakllanib, “Boburnoma”da tarixiy tajriba orqali tasdiqlangan konseptual boshqaruv modeli sifatida namoyon bo'ladi. “Boburnoma” asarida boshqaruv madaniyati va siyosiy tafakkur davlatni idora qilishning real tarixiy mexanizmlari orqali yoritiladi. Boburning siyosiy dunyoqarashi adolat va tartibni davlat barqarorligining poydevori sifatida tushunadi; harbiy intizom, moliyaviy boshqaruv (“devon”), diplomatik muomala, xavfsizlik nazorati kabi omillar esa hukmdor faoliyatining ajralmas qismi sifatida namoyon bo'ladi. “Boburnoma” shu jihatdan ham tarixiy memuar, ham siyosiy tafakkur manbai, ham boshqaruv madaniyati maktabi sifatida ilmiy qadriyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bobur Z. M. *Boburnoma*. – Toshkent: Fan, 1960. - 514 b.
2. Aristotel. *Siyosat*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012.
3. Nizomulmulk. *Siyosatnoma*. – Toshkent: Fan, 1997. - 308 b.
4. Makiavelli, N. *Hukmdor*. – Toshkent: Akademnashr, 2010. - 144 b.
5. Weber M. *Iqtisodiyot va jamiyat*. – Moskva: Progress, 1990.
6. Karimov N. *O'zbek adabiyoti tarixi*. – Toshkent: O'qituvchi, 2008.
7. Vohidov, R. *O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi*. – Toshkent: Fan, 2006. - 528 b.



*Zahiriddin Muhammad
Boburning tarixiy
tafakkuri va
“Boburnoma” da
davr siyosiy-ijtimoiy
muhitining aks etishi*



ODINAXON ISMOILOVA
“University of economics and
pedagogy” NOTM o‘zbek va rus
tili kafedrası o‘qituvchisi

Hammualiflar

FOTIMAXON QODIRALIYEVA

MUXLISAXON ZULFIDDINOVA

“University of economics and
pedagogy” NOTM talabalari

Аннотация: В данной статье анализируется историческое мышление Захириддина Мухаммада Бабура и отражение политической и социальной обстановки XV-XVI веков в его произведении «Бобурноме». Показано, что произведение охватывает политическую борьбу, государственное управление, общественную жизнь, обычаи и культурные процессы того времени. Наблюдения Бабура, правдивое описание событий и художественное выражение исторической реальности подчеркивают важность его произведения не только как литературного, но и как исторического источника. В статье исследуется историческое и политико-социальное значение книги «Бобурноме», её роли в отражении духа эпохи и её методологические аспекты.

Ключевые слова: Управление, политическое мышление, география, этнография, поэзия, нравственность, духовность, узбекский язык

Zahiriddin Muhammad Bobur — temuriylar sulolasining soʻnggi vakillaridan biri, buyuk shoir va davlat arbobi. Uning “Boburnoma” asari XV–XVI asr Markaziy Osiyo va Hindiston siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotini haqqoniy tasvirlagan nodir manba boʻlib, muallifning tafakkuri va dunyoqarashini aks ettiradi.

Bu asar eski oʻzbek tilida yozilgan boʻlib, «Boburiya, «Voqeoti Boburiy»,

«Tuzuki Boburiy», «Tabaqoti Boburiy», «Tavorixi Boburiy» kabi nomlar bilan maʼlum. Mirzo Boburning oʻzi esa «Vaqoye» va «Tarix» degan nomlarni ishlatgan.

Ushbu asar Bobur Mirzo tomonidan yozilgan boʻlib, Oʻrta Osiyo, Afgʻoniston va Hindistonning tarixini, joʻgʻrofiyasini, etnografiyasi, oʻsimlik va hayvonot olami, xalqlari, odamlarning kasb-kori, tili, hayot tarzi va boshqa xususiyatlari haqida bebaho maʼlumotlarni oʻzida mujassam etgan manbadir. Shuningdek, asarda Movarounnahr, Hindiston va boshqa mintaqalarning tarixiy shaxslari, voqealari va madaniyati toʻgʻrisida muhim maʼlumotlar keltirilgan. [1] «Boburnoma» asarining ilmiy ahamiyati shundaki, u nafaqat tarixiy voqealar haqida aniq maʼlumot beradi, balki oʻzbek tili rivojiga ham katta hissa qoʻshgan. Asarda qoʻllanilgan til va badiiy uslublar oʻzbek tilining boy va xilma-xil imkoniyatlarini namoyish etadi. Bobur oʻz ijodida tarixiy tasvirlar, shaxsiy kuzatishlar va adabiy iboralarni muvaffaqiyatli birlashtirgan, bu esa asarni jahon adabiyotining qimmatli asariga aylantirgan.

Shuni ham alohida taʼkidlash kerakki, “Boburnoma” da muallifning siyosiy tafakkuri ham yorqin ifodasini topadi. U voqealarni yozishda oʻzining hukmdor sifatidagi tajribasini ham, oddiy kuzatuvlarini ham birlashtiradi. Masalan, Samarqandni tasvirlar ekan, u ilm-fan va madaniyatni siyosiy kuch bilan yonma-yon koʻrgan: “Temurbekning va Ulugʻbek Mirzoning imorati va bogʻoti Samarqand mahallotida koʻpdur... Ulugʻbek Mirzoning imoratlaridin Samarqand qalʼasining ichida madrasa va xonaqohdur. Xonaqohning gumbazi bisyor ulugʻ gunbazdur. Olamda oncha ulugʻ gunbaz yoʻq

deb nishon berurlar”, tarzidagi maʼlumotlardan madrasa va xonaqohning ulugʻvorligini, uning gunbazi ham ancha muhtasham ekanini tasavvur qilish mumkin.



Oʻzbekiston tarixida Zahiriddin Muhammad Bobur nomi Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Ulugʻbek va Alisher Navoiy singari siyosiy hamda harbiy arboblardan qatorida tilga olinadi. Hindistonda Boburiylar imperiyasiga asos solgan bu Temuriylar sulolasi vakili (gʻarb manbalarida “Buyuk moʻgʻullar imperiyasi” deb ataladi) oʻz yurtiga sodiq boʻlib, umrining oxirigacha uning ravnaqi uchun kurash olib borgan. Boburning butun dunyoga mashhur boʻlgan eng yirik asari, shubhasiz, “Boburnoma” hisoblanadi. Sharqshunos olim, akademik V.V. Bartold taʼkidlaganidek, Bobur ijodidagi asarlar orasida «Boburnoma» nafaqat siyosiy kurashlarning hujjati sifatida, balki XV asrdanoq haqqoniy tarzda “turkiy nasrning mumtoz realistik namunasi” [2] sifatida eʼtirof etilgan yodgorlikdir.

[1] Boburnoma. T., Sharq nashriyoti, 2002, 5-b.

[2] Бартольд В.В. История культуры мусульманства. Санкт-Петербург, 1918. С.98

Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining 47 yillik hayoti davomida yirik adabiy va ilmiy meros yaratib qoldirgan. Uning qalamiga mansub mashhur "Boburnoma" asari butun dunyoda e'tirof etilgan. Shuningdek, turkiy she'riyatning eng go'zal namunalardan bo'lgan nafis g'azal va ruboiylardan iborat she'riy devoni, musulmon huquqshunosligiga oid "Mubayyin" ("Bayon etilgan") asari, she'riyat nazariyasiga bag'ishlangan «Aruz risolasi», musiqa va harbiy ishlar bo'yicha yozilgan risolalari, "Harb ishi" asari, maxsus yaratilgan "Xatti Boburiy" alifbosi hamda "Risolayi volidiya" kabi asarlari bizgacha yetib kelgan.^[3]

"Boburnoma"da Samarqand taxtiga o'tirganligi haqida shunday yozilgan: "Samarqand taxtiga o'lturg'och, Samarqand beklarini burungudek o'q rioyat va inoyat qildim. Bizning bila bo'lg'on beklarni ham faroxo'ri hollariga yarasha tarbiyat va shafkat qildim. Sulton Ahmad Tanbalning borasig'a rioyat ko'prak voqe bo'ldi. Ichki beklar chargasiga edi, ulug' beklar chargasida rioyat qildim. Samarqandikim, yetti oy muhozara qilib, tashvishlar bila olduk, avval kelganda cherik eliga o'lja- mo'ljadek nima tushub edi. Bir Samarqanddin o'zga jami viloyatlar mahga kirib edi., yo Sulton Ali mirzog'a bu kirgan viloyatlarni topib bo'lmas edi. Muncha talon-taroj tortg'on viloyatlardin nima olmaq xud nechuk muyassar bo'lg'ay edi". Bobur "Boburnoma"da Samarqand taxtiga o'tirganidan so'ng beklar va amaldorlarga munosabatini alohida qayd etadi. U ilgari bo'lgani kabi ularni rioyat va inoyat bilan taqdirlaganini, o'ziga yaqin bo'lgan kishilarga esa holatlariga yarasha tarbiya va shafqat ko'rsatganini yozadi. Ayniqsa, Sulton Ahmad Tanbalga ko'proq e'tibor berganini ta'kidlaydi. Bu holat Boburning hokimiyatni mustahkamlashda murosachilik siyosatini yuritganini ko'rsatadi. Samarqandni yetti oy muhosara qilib olish jarayoni esa uning siyosiy faoliyatidagi murakkab harbiy kurashlarni ochib beradi. Shaharni qo'lga kiritish katta tashvish va talafotlar evaziga amalga oshgani, askarlarga o'lja sifatida taqsimlangan narsalar haqida

yoziqlishi o'sha davr siyosiy-ijtimoiy hayotida urush iqtisodiyoti va talon-tarojning keng tarqalganligini ko'rsatadi. Viloyatlarning talon-taroj qilinishi va ularni qayta tiklash qiyinligi esa markazlashgan hokimiyatning zaifligini ochib beradi. Bobur voqealarni haqqoniy va realistik tarzda tasvirlab, nafaqat g'alabalarni, balki muammolarni ham ochiq yozadi. Bu uning siyosiy tafakkurida realizm va tanqidiy yondashuv mavjudligini ko'rsatadi. Shu bois "Boburnoma" nafaqat adabiy, balki tarixiy-siyosiy manba sifatida ham katta ahamiyatga ega.

"Boburnoma" sahifalarida Shayboniyxon muallif tomonidan eng ko'p tilga olingan hukmdorlardan biri sifatida tasvirlanadi. "Boburnoma"da bayon qilinishicha:

"...Shayboqxonidan xunuk hatti-harakat va yaramas qiliqlar Hirotda sodir bo'ldi... Mazkur parcha Boburning "Boburnoma"sida Shayboqxoniga berilgan bahosini ifodalaydi. Bobur Hirotda sodir bo'lgan voqealarni tasvirlar ekan, Shayboqxonni "xunuk hatti-harakat va yaramas qiliqlar" bilan tavsiflaydi. Bu jumla bir necha tarixiy-siyosiy jihatlarni ochib beradi. Avvalo, Bobur o'z davrining siyosiy raqiblarini baholashda faqat ularning harbiy kuchini emas, balki axloqiy va siyosiy qiyofasini ham ko'rsatishga intilgan. Shayboqxoniga nisbatan ishlatilgan salbiy ta'rif Boburning unga bo'lgan shaxsiy munosabatidan tashqari, o'sha davr siyosiy muhitida Shayboqxoniga qarshi kuchlarning keng tarqalgan qarashlarini ham aks ettiradi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, Zahiriddin Muhammad Boburning tarixiy tafakkuri uning siyosiy faoliyati, shaxsiy hayotiy tajribasi hamda davr voqealariga tanqidiy yondashuvi asosida shakllangan. "Boburnoma" asari muallifning individual xotiralari majmuasi bo'lishiga qaramay, unda XV–XVI asrlarga xos siyosiy-ijtimoiy jarayonlar tizimli va izchil tarzda yoritilgan. Bobur voqealarni bayon etishda xronologik izchillikka amal qilishi, sabab-oqibat munosabatlarini ochib berishi hamda tarixiy

[3] Ma'naviyatyulduzlari. T., 2001.268-b.

shaxslar faoliyatini baholashi orqali o'zining yetuk tarixchi sifatidagi qarashlarini namoyon etadi. Asarda davr siyosiy muhiti hukmdorlar o'rtasidagi hokimiyat uchun kurashlar, markazlashgan davlat barpo etishdagi qiyinchiliklar va ichki siyosiy beqarorlik fonida aks ettiriladi. Bobur siyosiy jarayonlarni shaxsiy manfaat nuqtayi nazaridan emas, balki davlat va jamiyat barqarorligi bilan bog'liq holda tahlil qiladi. Uning ayrim siyosiy qarorlarga nisbatan o'z-o'zini tanqid qilishi asarning ilmiy va tarixiy ahamiyatini yanada oshiradi.

“Boburnoma”da ijtimoiy muhit tasviri ham muhim o‘rin egallab, unda jamiyatning turli qatlamlari hayoti, ijtimoiy munosabatlar, axloqiy me‘yorlar va xalq turmush tarziga oid kuzatishlar

mavjud ziddiyat va muammolarni ochiq ifodalashi orqali tarixiy haqiqatni imkon qadar to'liq aks ettirishga intiladi. Bu jihat asarni o'z davrining muhim tarixiy manbalaridan biriga aylantirgan.

Umuman olganda, “Boburnoma” Zahiriddin Muhammad Boburning tarixiy tafakkurini mujassam etgan, davr siyosiy-ijtimoiy muhitini kompleks tarzda yorituvchi noyob asar hisoblanadi. Undagi tahliliy yondashuv, voqealarning real tasviri va muallif pozitsiyasining aniqligi mazkur asarning ilmiy, tarixiy va ma'naviy ahamiyatini belgilab beradi hamda uni hozirgi tarixshunoslik tadqiqotlari uchun ham muhim manba sifatida namoyon etadi.



mavjud. Boburning adolat, mas'uliyat va boshqaruv madaniyatiga oid qarashlari hukmdor shaxsining jamiyatdagi o'rnini masalasini tarixiy jihatdan yoritishga xizmat qiladi. Bu holat asarning faqat siyosiy tarix emas, balki ijtimoiy tafakkur manbai sifatidagi ahamiyatini ko'rsatadi. Shu bilan birga, “Boburnoma”da muallifning tarixiy voqelikka nisbatan nisbatan xolis va kuzatuvchan munosabati yaqqol seziladi. Bobur voqealarni ideallashtirmasdan,

Foydalanilgana adabiyotlar

1. *Ma'naviyat yulduzlari*. T., 2001. 268-272-b.
2. *Zahiriddin Muhammad Bobur, Boburnoma* Toshkent: Sharq nashriyoti, 2002. – 335 b.
3. *Бартольд В.В. История культуры мусульманства.* - С.-Петербург, -1918. С.98.
4. *Бекмирзаяева Х. Bobur va ijodi haqida maqolalar // X.Davron kutubxonasi* (<http://kh-davron.uz>).

Bobur she'riyati



BARCHINOY YARKINOVA

“University of economics and pedagogy” NOTM o‘zbek va rus tili kafedrasini mudiri, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Аннотация: В статье освещены жанровые особенности, тематический диапазон, научно-просветительская и литературная ценность лирического наследия Захириддина Мухаммада Бабурова, выдающегося представителя узбекской литературы.

Ключевые слова: Лирика, рукописный экземпляр, газель, рубаи, туюк, маснави, кыта, фард, Диван Бабурова, мусаджда‘ газель, газель-кыта, газель с красивым матла‘, с двойным размером и рифмой, рубаи-тарана.

Boburning lirik asarlari asosan uning devoniga jamlangan. Shoir o‘zbekcha devonining ikki qo‘lyozma nusxasi borligi ma‘lum. Bulardan biri Parijda, ikkinchisi Hindistonda saqlanadi. Bobur lirik merosini shu ikki qo‘lyozma nusxa va «Boburnoma» dagi she‘rlar tashkil etadi. Bobur she‘rlarini 1910-yilda ingliz sharqshunosi Denison Ross to‘plab, ingliz tiliga tarjima qildi va nashr etdi. Shoirning ba‘zi she‘rlari 1931-


yil Istambulda chiqqan «Milliy tatabbu‘lar» majmuasiga ham kiritilgan. Boburning she‘rlari o‘tmishda ingliz, frantsuz, va boshqa Yevropa tillariga ham tarjima qilingan edi. Keyingi 60-70 yil ichida Bobur she‘rlari qayta-qayta nashr qilindi, xrestomatiyalarga, turli to‘plamlarga kiritildi va bir necha marta tanlangan asarlar tarzida bosilib chiqarildi. Bobur devoni lirik turning har xil janrda yozilgan she‘rlarini,

g'azal, ruboiy, tuyuq, masnaviy, qit'a, fard va boshqalarni o'z ichiga oladi. Unda oddiy g'azallar bilan bir qatorda g'azali musajja' (markaziy ruknlari qofiyadosh bo'lgan g'azal), qit'a g'azal (birinchi bayti qofiyasiz bo'lgan g'azal), g'azali husni matla' (matla'dagi keyingi baytning har ikkala misrasi matla'ga qofiyadosh bo'lgan g'azal), qo'shaloq vaznli va qofiyali, ruboiy tarona (to'rtala misrasi qofiyadosh bo'lgan ruboiy), oddiy tuyuqdan tashqari, qo'shaloq tajnisli tuyuq, tajnissiz tuyuq hamda tajnisli qit'a, tajnisli fard, qofiyali fard va qofiyasiz fard shakllarini ham ko'ramiz. Fazal, ruboiy va tuyuq Bobur lirikasining eng xarakterli janrlaridir. Bobur aruzning hafif, ruboiy, rajaz, ramal, sare', tavil, mutaqorib, mujtass, muzore', munsareh va hazaj bahrlaridan hamda bu bahrlarning 25 turdagi ichki xillaridan foydalanadi. Bobur devoni asosan uning o'zbek tilidagi she'rlaridan tashkil topgan. Biroq shu bilan birga, unda fors-tojik tilida yozilgan bir necha she'r ham bor. Bobur o'z ona tiliga bo'lgan muhabbatini bir she'rida shunday ifodalagan edi:

Erur turk oshiq, kosh bilsam forsiy qoni,
Desam holimni bilsa, forsiydan dilbarim oni.

Bobur fors-tojik adabiy tilini ham mukammal bilar edi. Bunga shoirning fors-tojik tilidagi she'rlari yaqqol misol bo'la oladi. Bobur Lutfiy, Alisher Navoiy, Umar Hayyom, Hofiz singari ustoz san'atkorlarning bir qator an'alarini davom ettirdi va rivojlantirdi, ularning g'azallariga nazira va muxammaslar bog'ladi. Bobur lirikasining mavzu ko'lami keng va xilma-xildir. Bobur umuman voqelikni, xususan, ijtimoiy fikrni, ijtimoiy hayotni kengroq qamrab olishga harakat qiladi va bu sohada ko'pgina yutuqlarni qo'lga kiritadi. Kishilarning ma'naviy qiyofasi, din, tasavvuf, hokimiyat va marifat masalalari, yor va unga bo'lgan muhabbat, vatan haqidagi o'ylar, unga intilish, zamondan norozilik, hayotni sevish Bobur lirikasining mavzulari hisoblanadi. Murakkab va ziddiyatli hayot va kurash yo'lini bosib o'tgan Boburning o'zi bu lirikaning markaziy qahramonidir. Bobur

lirikasi til va uslubi jihatidan nihoyatda sodda va ravondir. U jo'shqin va musiqiy misralarida hayotiy, original obrazlar yaratadi, xalq tili va uning og'zaki ijodi boyliklaridan unumli va o'rinli foydalanib, she'rlarining tilini boy va rang-barang qilishga erishadi.



U odamlarni hayotni qadrlashga va sevishga, rostgo'y to'g'ri bo'lishga, o'z shaxsiy manfaati ketidangina quvmaslikka, halol, sof ko'ngil bo'lishga, umuman ruhiy boylikka ega bo'lishga, mazlum va muhtojlarni oyog' osti qilmaslikka, maqsadga zo'r berib intilishga, qat'iyat bilan qanday bo'lmasin unga erishishga chaqiradi. Shoir bir she'rida shunday deydi:

Davlatg'a yetib mehnat elin unutma,
Bu besh kun uchun o'zungni asru tutma...

Bobur hayot, sevgi va shodlik kuychisidir. U dunyoni, hayotni, hayot quvonchlarini, inson tirikligini, uning xursandchiligini, bahor va uning xursandchiligini, bahor va uning latofatini sevadi:

Yoz bo'ldiyu bo'ldi yana jannat kibi yozi,
Xush ul kishikim aysh ila o'tgay qishu yozi.

Shoir lirikasida bunga ko'plab xarakterli misollar
keltirish mumkin, jumladan:
*Yoz fasli, yor vasli, do'stlarning suhbatlari,
She'r bahsi, ishq dardi, bodaning kayfiyati.*

*Yoz faslida chog'ir ichmakning o'zga holi bor,
Kimga bu nash'a muyassar
bo'lsa bordur davlati.*

*Ishq dardin chekib har kimki topsa vasli yor,
Ul zamon bo'lg'ay unut, yuz yilki hijron shiddati.*

Shoir «yoz fasli» bilan bodaning kayfiyatini,
«yor vasli» bilan «ishq dardi» ni, «do'stlarning
suhbatlari» bilan «she'r bahsini» kuylaydi. U
dilkash, bama'ni va xushchaqchaq majlislarni,
do'stlar suhbatini istaydi va ta'rif qiladi.
Boburdagi bu kayfiyat o'zining chuqur falsafiy
asoslariga ega, zotan hayotni qattiq sevuvchi va
shu bilan birga uning zavq - shavqini tark etishni
istamaydigan, umrning insonga berilgan ne'mat
ekanligini idrok etadigan uning mohiyatini
anglagan inson albatta uning qadriga yetishga
da'vat etgan:

Fofil o'lma, ey soqiy, gul chog'in g'animat tut,
Vaqti aysh erur bog'iy, ol chog'ir, ketur, bot tut.
Bu nasihatim angla, ne bilur kishi yongla,
Ne bo'lur ekin tongla, sen bugun g'animat tut.

Boburning bunday erkin fikrlari o'z davrida
favqulodda ahamiyatga ega edi va ular Bobur
adabiy merosi uchun katta ijtimoiy mohiyat,
yorqinlik, mazmundorlik, joziba baxsh etadi.
Bobur she'riyati ilm-ma'rifatni, axloq-odob kabi
masalalarni ham qamrab oladi. Shoir ilmning
o'z-o'zidan bunyod bo'lmasligini ta'kidlar ekan,
kishi faqat havas va ishtiyoq bilangina ilmga
ega bo'lishi mumkin deydi:

Kim yor anga ilm tolibi ilm kerak,
O'rgangali ilm tolibi ilm kerak,
Men tolibi ilmu tolibi ilm yo'q,
Men borman ilm tolibi, ilm kerak.

Yaxshi xulq - atvorga ega bo'lishi, kishilarga
yaxshilik qilishi eng ezgu xislat va olijanob
fazilatdir:

Xalqingni rost etgil har sorig'aki borsang,
«Ahsanta» deb bori el,
gar yaxshi ot chiqarsang...

Bori elga yaxshilik qilgilki,
mundin yaxshi yo'q.
Kim degaylar dahr aro qoldi
falondin yaxshilig'.

Boburning ko'pgina she'rlarining mazmunini
vatan ishtiyoqi, g'urbat hasratlari, sog'inch
kayfiyati tashkil etadi. Bu bevosita shoirning
murakkab hayoti va kurash yo'li, shodi-
yona alamli sarguzashtlari bilan bog'liq.
Bobur temuriylar saltanatini saqlab qolish,
Movarounnahrda yirik va mustahkam davlat
qurishga intildi. Biroq bu orzulari amalga
oshmadi. U vatanini tashlab ketdi. Undan olisda
ko'plab mashaqqatlarni boshidan kechirib
yashadi. Bularning hammasi shoir qalbidan
qog'ozga ko'chdi, she'rga aylandi:

Ko'ngli tilagan murodga yetsa kishi,
Yo barcha murodlarni tark etsa kishi.
Bu ikki muyassar o'lmasa olamda,

Boshni olib bir sorig'a ketsa kishi,- deydi shoir.
Yana shunisi e'tiborliki, bunday kayfiyatdagi
ba'zi she'rlar shoir biografiyasi haqida kam
ma'lumot beradi, ya'ni biografik asosning shoir
she'riyatidagi o'rnini ko'rsatib turadi.

Beqaydmenu xarobi sim ermasmen,
Ham mol yiqishtirur laim ermasmen.
Qobulda istiqomat qildi Bobur dersiz,
Andog' demangizlarki, muqim ermasmen.

Boburning vataniga qaytish orzusi ushalmadi.
U yurtidan uzoqda qolib ketdi, davlati va
saltanati uni umr bo'yi chet elga bog'lab qo'ydi.
Binobarin, u:
Keldim bu sari o'z ixtiyorim birla,
Lekin borurimda ixtiyorim yo'otur, - degan
edi. Bobur she'rlari orasida o'zining vatanidan

olisga ketib qolishini «xatoligʻ» deb baholagan pushaymonligʻ kayfiyati ham uchraydi:

Tole' yo'qki, jonimg'a balolig' bo'ldi,
Har ishnikim ayladim, xatolig' bo'ldi.
o'z yerni qo'yib Hind sori yuzlandim,
Yorab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi.

Demak, Bobur o'z vatanini ishtiyoq bilan sevadi, g'urbatdan hasrat va nadomat chekadi, bu kayfiyatini, holatini o'z she'rlarida - g'azal va ruboiylarida mahorat bilan ifodalaydi. Boburning san'atkorlik mahorati badiiy san'at va tasvir vositalarini qo'llashda ham namoyon bo'ladi. U o'xshatish, tazod, laf va nashr, parallelizm, mubolag'a va boshqa turdagi usul va badiiy til vositalari orqali mavzuni, obrazni, holat va his-tuyg'uni mukammalroq yoritishga erishadi. Xullas, Bobur lirikasi rang-barang janrlardan tashkil topgan. Uning mavzu doirasi keng. Sharq she'riyati an'analarini davom ettirgan shoir mavjud she'riy san'atlar va tasvir vositalari deya mahorat bilan foydalanib, o'z san'atkorligini, o'zbek she'riyatida o'ziga xos hodisa ekanligini namoyish qildi.

Foydalanilgana adabiyotlar

1.Zahiriddin Muhammad Bobur. *Mahrami asror topmadim.* - T., 1993.

2.Mallaev N. *O'zbek adabiyoti tarixi. Birinchi kitob,* 1976. - 739 b.

3.Qudratullayev O'. *Boburnoma ning tarixiy – adabiy va uslubiy tahlili. // Avtoreferat.* - T., 1998.

4.*Gulbadanbegim Humoyunnoma,* - T., 1998. - 120 b

5.Zahiriddin Muhammad Bobur va uning avlodlari. - T., 1996. - 96 b.

MIRZO BOBUR IJODIDAN NAMUNALAR

G'azallar

* * *

Keltursa yuz baloni o'shal bevafo manga,
Kelsun agar yuzumni evursam, balo manga.

Netgayman ul rafiq bilakim, qilur base,
Mehru vafo raqibg'a, jabru jafo sanga.

Begona bo'lsa aql meni tilbadin, ne tong,
Chun bo'ldi ul parisifatim oshno manga.

Ohu yoshimdin orta durur za'f, ey tabib,
Bildim yarashmas emdi bu obu havo manga.

Dardim ko'rub muolajada zoe' etma umr,
Kim, jonda dardi ishq durur bedavo manga.

To yor kimni istaru ko'ngliga kim yoqar,
Tashvish bejihat durur oxir sango, manga.

Bobur, bo'lub turur ikki ko'zum yo'lida to'rt,
Kelsa ne bo'ldi qoshima bir-bir mango manga.

* * *

O'zni, ko'ngul, aysh bilan tutmoq kerak,
Bizni unutmog'ni unutmog' kerak.

Ayshu tarab gulbunig'a suv berib,
G'ussa niholini qurutmoq kerak.

Tiyra turur zuhd damidin ko'ngul,
Ishq o'ti birla yurutmoq kerak.

Har nimag'a g'am ema, g'am ko'p turur,
Aysh bila o'zni unutmog' kerak.

Qo'yma mashaqqat aro, Bobur, ko'ngul,
O'zni farog'at bila tutmoq kerak.

*Bobur lirikasida
irfoniy ishq
poetikasi*



O'TKIRBEK MUHAMMAD SOBIR

“University of economics and
pedagogy” NOTM
katta o'qituvchisi

Hammualiflar

ABDULAZIZ SAYFULLAEV


AKMALJON MA'MUROV

“University of economics and
pedagogy” NOTM
talabalari

Аннотация: В данной статье анализируется поэтика просветлённой любви в лирическом творчестве Бабура. В стихах поэта раскрывается духовная и воспитательная природа любви, она выражается как сила, ведущая человеческую психику к совершенству. Научно освещается интерпретация Бабуром любви как источника нравственного очищения, просветления и внутреннего пробуждения посредством художественного представления.

Ключевые слова: Ключевые слова: Газели Бабура, узбекская классическая литература, тема любви, суфийская любовь, духовно-ирфанское содержание, фана и бака, сакий, вино, чаша, разлука, воссоединение, ирфанские символы, духовное совершенство, освобождение и избавление от нафса, божественная истина, ма'рифат, сакий, вино, сукур, опьянение любовью, смирение, соловей, роза, таверна, узбекская классическая литература, духовная вечность, божественная истина, ирфанская лирика, духовное воспитание, духовное пробуждение, поэтическое выражение.

Zahiriddin Muhammad Bobur g‘azallari o‘zbek mumtoz adabiyotida nafaqat badiiy nafosati, balki ma‘naviy-irfoniy mazmuni bilan ham alohida o‘rin tutadi. Uning lirikasida ishq mavzusi markaziy o‘rin egallasa-da, bu ishq faqat zohiriy, dunyoviy hissiyot doirasi bilan cheklanmaydi. Aksincha, Bobur poeziyasida ishq inson ruhini poklovchi, uni nafs asoratidan xalos etuvchi va ilohiy haqiqatga yetaklovchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois Bobur g‘azallarini o‘rganishda ularning tasavvufiy qatlamini ochib berish muhim ilmiy vazifadir.



Tasavvufda ishq insonni “men” degan tor doiradan chiqarib, uni Haqqa yuzlantiradigan botiniy harakat sifatida talqin etiladi. Imom G‘azzoliy ishqni qalbni Allohga bog‘lovchi eng kuchli vosita deb baholab, “ishq ma‘rifatdan tug‘iladi, ma‘rifat esa ishqni kamolga yetkazadi” degan fikrni ilgari suradi (Ghazali 112). Farididdin Attar esa solikning butun yo‘lini ishq atrofida qurib, “ishqsiz safar — safar emas” degan xulosaga keladi (Attar 54). Abdurahmon Jomiy uchun ishq — insonni zohirdan botinga, jismdan ruhga yetaklovchi ichki inqilobdir (Jami 139).

Alisher Navoiy tasavvufiy ishqni kamolot yo‘li sifatida talqin qiladi. Uningcha, haqiqiy oshiq “o‘zligini yo‘q qilib”, Haqda boqiy bo‘ladi (Navoiy 214). Bu qarashlar tasavvufdagi “fano” va “baqo” mafhumlari bilan bog‘liq bo‘lib, solikning ma‘naviy kamoloti aynan shu ikki bosqich orqali amalga oshadi. Fano — nafsdan, “men”dan kechish; baqo esa Haq bilan boqiy bo‘lish holatidir. Ibrohim Haqqul mumtoz she‘riyatda ishqning ma‘naviy tabiati haqida shunday yozadi: “Tasavvufiy lirikada ishq insonni nafs asoratidan ozod etuvchi, uni botiniy kamolotga yetaklovchi ma‘naviy kuch sifatida namoyon bo‘ladi” (Haqqul 42). Bu fikr g‘azallardagi ishqni faqat hissiy holat sifatida emas, balki ruhiy harakat sifatida o‘qish zarurligini ko‘rsatadi.

Zamonaviy tasavvufshunos Annemari Shimmel ham sharq she‘riyatida ishq ramzlari haqida quyidagicha ta‘kidlaydi: “Sharq poeziyasida ishq doimo ikki qatlamda yashaydi: zohiriy va botiniy. May, soqiy, gul, bulbul kabi obrazlar tashqi ma‘noda dunyoviy muhabbatni, ichki ma‘noda esa ilohiy ishqni anglatadi” (Schimmel 87). Demak, mumtoz g‘azalni ramziy qatlamdan xoli holda o‘qish uning ma‘naviy mazmunini cheklab qo‘yadi.

Bobur ham ana shu tasavvufiy an‘ana davomchisi sifatida ishqni insonni yuksaltiruvchi kuch deb biladi. Uning g‘azallarida soqiy, boda, jom, hajr, vasl, fano kabi obrazlar faqat badiiy bezak emas, balki ruhiy kamolot yo‘lini ifodalovchi irfoniy ramzlardir. Bu ramzlar orqali shoir inson qalbining botiniy harakatini, nafs bilan kurashini, haqiqatga intilishini tasvirlaydi.

Shu nuqtai nazardan, Bobur g‘azallari tasavvufiy tafakkurning poetik ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Uning lirikasida ishq — insonni dunyoviy manfaatlardan uzib, uni ilohiy jamol sari yetaklovchi yo‘ldir. Oshiq bu yo‘lda obro‘, nomus, “men” degan tushunchadan kechishga tayyor bo‘ladi. Bu esa tasavvufdagi “tarki nafs” g‘oyasining poetik ifodasidir.

Bobur g‘azallarida ishq ikki qatlamda — zohiriy va botiniy ma‘noda harakat qiladi. Zohiriy qatlamda u insonlararo muhabbatni ifoda etsa, botiniy qatlamda ilohiy ishq, ruhning

Haqqa intiluvi sifatida namoyon bo'ladi. Bu ikkilik tasavvuf poetikasi uchun xos bo'lib, Bobur ham shu an'anani ijodiy davom ettiradi. Navoiy ishqni “o'zlikdan kechish yo'li” deb ta'riflagan edi (Navoiy 198). Boburda ham oshiq o'z “men”idan voz kechishga tayyor holatda tasvirlanadi.

Bu g'oya ayniqsa «Ne ko'ray to'boni qaddi xushxiroming borida?!» g'azalida yaqqol ko'rinadi. G'azal jannat ramzi bo'lgan To'bo daraxti bilan boshlanadi:

*Ne ko'ray to'boni qaddi xushxiroming borida?!
Ne qilay sunbulni xatti mushkfoming borida?!*

To'bo — islomiy an'anada jannatdagi muqaddas daraxt ramzi. Ammo shoir uchun ma'shuq bor ekan, jannat ne'matining o'zi ham ahamiyatini yo'qotadi. Bu yerda ma'shuq zohiriy inson emas, balki ilohiy mahjub timsolida talqin etiladi. Tasavvufda Haqqa yetish jannatga erishishdan ham oliy maqsad hisoblanadi. Jomiyning ta'biri bilan aytganda, “orif uchun jannat maqsad emas, balki yo'ldagi manzillardan biridir” (Jami 141). Bobur ana shu g'oyani poetik shaklda ifoda etadi: ilohiy jamol oldida barcha dunyoviy ne'matlar soyaga aylanadi.

G'azalda Xizr va Masih obrazlari ham irfoniy ma'noda qo'llanadi:

*Kim Xizr suyini og'izlag'ay labingning qoshida?
Kim Masih alfozidin degay kaloming borida?!*

Xizr — abadiy hayot ramzi, Masih esa tiriltirish qudrati timsoli. Ma'shuqning labi hayot manbai, so'zi esa ruhni tiriltiruvchi kalom sifatida ko'riladi. Annemari Schimmel ta'kidlaganidek, payg'ambarlar obrazi mumtoz g'azalda ko'pincha ilohiy ishqning hayotbaxsh qudratini ko'rsatish uchun ramziy vazifa bajaradi (Schimmel 102). Demak, Bobur bu obrazlar orqali ishqni ruhiy hayot manbai sifatida talqin qiladi.

G'azalning markaziy nuqtasi quyidagi misrada jamlangan:

*Tarki nomus aylabon badnom bo'lg'il
ishq aro,
Kim seni oshiq degay nomusu
noming borida?!*

Bu misra tasavvufdagi “fano” g'oyasining poetik ifodasidir. Fano — solikning o'z “men”idan, jamiyat oldidagi mavqeidan, nom-obro'sidan kechishidir. Attorning ta'biri bilan aytganda, “ishq yo'lida ism ham, rasm ham qolmaydi” (Attar 76). Bobur uchun ham haqiqiy oshiq xalq nazarida “badnom” bo'lishi mumkin, ammo u Haq nazaridan qolmasligi lozim. Shu ma'noda “badnomlik” kamsitish emas, balki ruhiy ozodlik ramziga aylanadi.



G'azal oxirida shoir o'zini bulbulga, ma'shuqni esa gulga qiyoslaydi. Bulbul-gul ramzi tasavvufda oshiq-ma'shuq munosabatining universal timsoli hisoblanadi. Schimmel bu haqda shunday yozadi: “Bulbul — iztirobli ruh, gul esa ilohiy jamol ramzi bo'lib, ular o'rtasidagi masofa inson bilan Haq o'rtasidagi ma'naviy masofani anglatadi” (Schimmel 145).

Boburda esa bulbul ma'shuq huzurini haqiqiy makon deb biladi. Demak, insonning asl vatani — ilohiy huzurdir.

Shu tariqa, «Ne ko'ray to'boni qaddi xushxiroming borida?!» g'azali Bobur poeziyasida irfoniy ishqning eng yorqin namunasi. Unda jannatdan kechish, nom-obro'dan voz kechish, fano orqali haqiqatga yetish g'oyasi poetik tarzda ifodalangan.

Bu g'azal Boburni faqat oshiq shoir emas, balki chuqur irfoniy tafakkur sohibi ekanini ilmiy jihatdan mustahkamlaydi.

Boburning «G'ofil o'lma, ey soqiy, gul chog'in g'animat tut!» g'azali mazmunan butunlay tasavvufiy ruhda yozilgan bo'lib, unda inson umrining foniyliigi, ma'naviy fursatni boy bermaslik va ruhiy uyg'onish g'oyasi markazga qo'yiladi. G'azal birinchi misradanoq insonni g'aflat uyqusidan uyg'onishga chorlaydi:

*G'ofil o'lma, ey soqiy, gul chog'in
g'animat tut!*

*Vaqti aysh emas boqiy, ol chog'ir,
ketur, bot tut!*

Tasavvufda “g'aflat” ruhning eng xavfli holati hisoblanadi. Imom G'azzoliy g'aflatni “qalb ko'zining ko'r bo'lishi” deb ta'riflaydi (Ghazali 64). G'aflat insonni haqiqatdan uzadi, uni tashqi olam bilan mahdudlab qo'yadi. Shu bois tasavvuf adabiyotida “uyg'onish” (yaqaza) solikning ilk maqomi sifatida qaraladi. Boburning “G'ofil o'lma” degan murojaati ham insonni shu ruhiy uyg'onishga chaqirishdir.

Bu g'azalda “soqiy” oddiy may tarqatuvchi emas, balki ruhiy murshid, ma'naviy yo'l boshchi ramzida talqin etiladi. Ibrohim Haqqul qayd etganidek, mumtoz g'azalda soqiy “qalbg ma'rifat quyuvchi, insonni botiniy yo'lga chorlovchi timsol” vazifasini bajaradi (Haqqul 58). Demak, soqiyga murojaat aslida ilohiy manbaga yuzlanishdir.

“Boda” esa zohiriy ma'noda may bo'lsa-da, irfoniy qatlamda ma'rifat va ilohiy ishq ramzidir. Navoiy bodani “haqiqat mayi” deb atab, uni qalbn tiriltiruvchi nur sifatida talqin qiladi (Navoiy 223). Boburda ham boda inson ruhini uyg'otuvchi, uni ma'naviy yuksalishga

yetaklovchi kuchdir. Shu bois “ol chog'ir” degan da'vat “qalbingni ishq bilan to'ldir” degan ma'naviy chaqiriq sifatida o'qiladi.

G'azalning quyidagi misralarida inson taqdiri ilohiy irodaga bog'liq ekani uqtiladi:

*G'ofil o'lma davlatta, o'zni solma mehnatga,
Tangri berur albatta, davlat ista, himmat tut!*

Bu yerda “davlat” moddiy boylik emas, balki ma'naviy kamolot ma'nosida qo'llangan. Jomiyning ta'biri bilan aytganda, “haqiqiy davlat — qalbn nurlanishidir” (Jami 167). Insonning vazifasi — “himmat tutmoq”, ya'ni qalban yuksalishga intilishdir. Natijani esa Alloh beradi. Bu tasavvufdagi “sa'y va tavakkul” tamoyilining poetik ifodasidir.

G'azal oxirida shoir:

G'am cheriki behaddur, chorasi budur,

Bobur:

Bodani ko'mak keltur, jomni himoyat tut!

deb xulosa qiladi. Bu yerda “g'am cherigi” — nafs, dunyo tashvishlari, ruhiy iztiroblar timsoli. Attor nafsni “ruhning eng katta dushmani” deb ataydi (Attar 88). Bobur ham shu g'oyani poetik tarzda ifoda etadi: insonni egallab olgan g'amlar va tashvishlarga qarshi yagona qurol — ishq va ma'rifatdir.

Shu tariqa, «G'ofil o'lma, ey soqiy, gul chog'in g'animat tut!» g'azali tashqi ko'rinishda hayotdan lazzat olishga da'vatdek tuyulsa-da, mazmunan insonni ma'naviy uyg'onishga, g'aflatdan xalos bo'lishga, foni umrni ilohiy ma'rifat bilan boyitishga chorlovchi irfoniy da'vatdir.

Boburning «Ichgucha jomi ajal ko'nglumda ul soqiydurur» g'azali uning irfoniy tafakkuri eng chuqur namoyon bo'lgan matnlardan biridir. Bu g'azalda ishq faqat hayot mazmuni emas, balki o'limdan keyin ham davom etadigan abadiy holat sifatida talqin qilinadi. G'azal ilk misralardananoq inson taqdirining eng oliy nuqtasi — o'limni ishq bilan bog'laydi:

*Ichgucha jomi ajal ko'nglumda ul soqiydurur,
To'lg'ucha paymonam ul soqiy bila boqiydurur.*

Bu yerda “jomi ajal” inson hayotining intihosi, o'lim soati ramzi. Biroq shoir uchun o'lim ishqdan ayriliq emas. U to joni chiqquncha soqiy, ya'ni ma'shuq bilan boqiydir. Tasavvufda bu hol “baqo billoh” tushunchasi bilan izohlanadi: solik fano orqali o'z “men”idan kechadi, ammo aynan shu yo'l bilan Haq bilan boqiy bo'ladi. Jomiy bu haqda shunday yozadi: “Fano yo'qlik emas, balki haqiqiy borliqqa ochilgan eshikdir” (Jami 152). Bobur ham o'limni yo'qlik emas, ishq bilan to'lgan yangi holat sifatida ko'radi.

G'azalning keyingi misralarida oshiq bodadan bosh ko'tarmasligini ta'kidlaydi:

Bosh ko'tarmon bodadin
chun bor ayog'i o'rtada,
Qo'ymon ilgimdin ayoq
chun jilvagar soqiydurur.

Bu yerda “boda” — ishq va ma'rifat, “soqiy” — ilohiy manba timsoli. Oshiq bu maydan yuz o'girmaydi, chunki uni soqiy jilvalantiradi. Tasavvufda bunday hol “sukr” — ishq mastligi deb ataladi. G'azzoliy ta'kidlaganidek, “ishq holatida aql chekinadi, ammo bu johillik emas, balki yuksak idrokdir” (Ghazali 129). Demak, Boburdagi mastlik aqlni yo'qotish emas, balki uning chegaralaridan oshib o'tish holatidir.

Shoir o'zining egma qomatiga ham irfoniy ma'no beradi:

Egma qaddim ayb qilma
qoshi yolar ishqida,
Yangi oydek xam bo'lur
gar xud falak toqidurur.

Bu yerda egilish — zaiflik emas, balki ishqdagi taslimlik va kamtarlik ramzidir. Tasavvufda tavo'zu' solikning eng muhim fazilatlaridan hisoblanadi. Attorning ta'biri bilan aytganda, “bosh egmagan qalb ishq ostonasidan kirolmaydi” (Attar 97). Bobur ham shu g'oyani badiiy tarzda ifoda etadi: hatto falak

ham yangi oydek egilib turar ekan, oshiqning egilishi ayb bo'lolmaydi.

Bu g'azalning umumiy ruhidan anglashiladiki, Bobur uchun ishq insonni o'limdan qo'rqmaydigan, hatto o'limni ham ma'naviy kamolot bosqichi sifatida qabul qiladigan holatga olib keladi. Ishq insonni jism doirasidan chiqarib, ruhiy abadiylikka yetaklaydi. Annemari Schimmel bu holatni “ishq orqali o'limning ma'nosini o'zgartirish” deb ta'riflaydi (Schimmel 176).

Shu jihatdan, «Ichgucha jomi ajal ko'nglumda ul soqiydurur» g'azali Bobur poeziyasida fano va baqo g'oyasining eng yorqin poetik ifodasi bo'lib, unda ishq hayot va o'limni birlashtiruvchi abadiy kuch sifatida namoyon bo'ladi.



Bobur g'azallarida tasavvufiy mazmun faqat ayrim misralarda emas, balki butun ramziy tizim orqali namoyon bo'ladi. Uning lirik olamida bulbul, gul, mayxona, jom, soqiy, hajr, vasl kabi obrazlar an'anaviy g'azal poetikasiga tayanilgan holda, irfoniy ma'no bilan yuklangan.

Tasavvuf adabiyotida bulbul — oshiq ruhining, gul esa ilohiy jamolning ramzi hisoblanadi. Bulbulning nolasi inson qalbining Haqqa intilgan iztirobini anglatadi. Annemari Schimmel ta’kidlaganidek, “bulbul-gul timsoli Sharq poeziyasida inson ruhining ilohiy go’zallikka qarata aytgan nolasidir” (Schimmel 143). Boburda ham bulbul o’zini ma’shuq gulistoniga tegishli deb biladi. Demak, insonning asl vatani — ilohiy huzurdir.

Mayxona va jom obrazlari Boburda hayotbaxsh shodlik manzilidan ko’ra, ma’naviy muhit ramziga aylanadi. Mayxona — dunyo qonunlaridan ozod bo’lgan ruhiy makon, jom esa qalb timsolida talqin etiladi. Navoiy mayxonani “ruh mast bo’ladigan makon” deb ta’riflaydi (Navoiy 231). Bobur ham mayxona obrazi orqali inson qalbining ozodlikka chiqqan, dunyo tashvishlaridan xalos bo’lgan holatini ifoda etadi.

Hajr va vasl tushunchalari esa tasavvufiy yo’lning asosiy bosqichlarini anglatadi. Hajr — insonning Haqdan uzoqlik hissi, ichki bo’shliq va iztirob holati. Vasl — ruhning ilohiy jamol bilan qovushish orzusi. Attorning ta’biri bilan aytganda, “hajr bo’lmasa, vasl qadri anglanmaydi” (Attar 63). Bobur g’azallarida ham hajr oshiqni iztirobga soladi, ammo aynan shu iztirob uni ma’naviy kamolotga yetaklaydi.

Ibrohim Haqqul mumtoz lirika ramzlari haqida shunday xulosa qiladi: “G’azaldagi har bir an’anaviy obraz — gul, bulbul, soqiy, boda — inson qalbining botiniy harakatini ifoda etuvchi ma’naviy belgiga aylanadi” (Haqqul 71). Bobur ana shu an’anani ijodiy davom ettirib, ramzlarni shaxsiy tajriba va ruhiy izlanish bilan boyitadi.

Shu tariqa, Boburning ramziy tizimi zohiriy ishqiy lirika niqobi ostida chuqur irfoniy mazmunni saqlaydi. Bu obrazlar inson qalbining botiniy harakatini, ma’naviy izlanishini, nafs bilan kurashini va haqiqatga intilishini ifoda etadi. Bobur Navoiy, Jomiy va Attor an’anasini meros qilib olgan holda, uni o’z individual tafakkuri bilan boyitadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur g’azallari tasavvufiy tafakkurning poetik ifodasi sifatida

o’zbek mumtoz adabiyotida alohida o’rin tutadi. Uning lirikasida ishq faqat hissiy holat emas, balki ma’naviy kamolot yo’li, nafsdan xalos bo’lish va ilohiy haqiqatga yetish vositasi sifatida talqin qilinadi.

«Ne ko’ray to’boni qaddi xushxiroming borida?!» g’azalida ishq jannatdan ham ustun qo’yilib, fano g’oyasi poetik tarzda ifodalanadi. «G’ofil o’lma, ey soqiy, gul chog’in g’animat tut!» g’azali insonni g’afolatdan uyg’onishga, ma’naviy fursatni boy bermaslikka chorlaydi. «Ichgucha jomi ajal ko’nglumda ul soqiydurur» g’azali esa ishqni hayot va o’limdan ustun qo’yuvchi abadiy holat sifatida namoyon qiladi.

Bu g’azallardagi soqiy, boda, jom, bulbul, gul, hajr, vasl, fano kabi obrazlar zohiriy ishqiy ma’nolar ortida yashiringan irfoniy mazmunni ochib beradi. Bobur uchun ishq — nafsdan qutulish, o’zlikdan kechish va haqiqatga yetish yo’lidir. Shu jihatdan uning g’azallari faqat badiiy zavq manbai emas, balki ma’naviy tarbiya va ruhiy uyg’onish manbai sifatida ham qadrlidir.

Bobur poeziyasi Navoiy, Jomiy va Attor an’alarini davom ettirgan holda, o’zbek adabiyotida irfoniy lirikaning yuksak namunasini yaratadi. Uning g’azallari insonni zohiriy olamdan botiniy olamga, jismdan ruhga, foniylkdan abadiylikka yetaklovchi ma’naviy ko’prik vazifasini bajaradi.

Foydalanigan adabiyotlar:

1. Attar, Fariduddin. *Mantiq ut-Tayr*. -Tehran, 2008.
2. Ghazali, Abu Hamid. *Ihya Ulum al-Din*. Cairo: Dar al-Ma’rifa, 2005.
3. Haqqul, Ibrohim. *Tasavvuf va she’riyat*. Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1991.
4. Jami, Abdurahman. *Nafahat ul-Uns*. Tehran, 2007.
5. Navoiy, Alisher. *Mukammal asarlar to’plami*. Toshkent: Fan, - 2011.
6. Schimmel, Annemarie. *Mystical Dimensions of Islam*. Chapel Hill: University of North Carolina Press, 1975.

*“Boburnoma”
yuqsaq badiiy asar
namunasi sifatida*



NIGORA SALOXIDDINOVA

**“University of economics and
pedagogy” NOTM
o‘zbek va rus tili kafedrası
professor v.b. PhD**

Аннотация: В данной статье анализируется художественное и научное значение знаменитого историко-художественного произведения Захириддина Мухаммада Бабура — «Бабур-наме». Рассматривается место произведения в истории мировой культуры, его ценность как исторического, географического, этнографического и литературного источника. Подчеркивается энциклопедический характер «Бабур-наме», гармоничное сочетание в нем исторических фактов и художественных описаний, а также отражение личности и духовных переживаний автора. Кроме того, научно обосновывается оценка произведения восточными и западными учеными, а также его место в развитии узбекской прозы.

Ключевые слова: сакий, вино, сукр, опьянение любовью, смирение, соловей, роза, таверна, узбекская классическая литература, духовная вечность, избавление от нафса, божественная истина, ирфанская лирика, духовное воспитание, духовное пробуждение, поэтическое выражение.

Jahon madaniyati tarixida shunday ulug' siymolar borki, asrlar o'tishi bilan ular qoldirgan meros tobora ko'proq kishilar xonadoniga kirib boradi, qalblarning to'ridan joy oladi, dunyo xalqlari adabiy hayotining ajralmas qismi bo'lib qoladi. Uzoq o'tmishda ijtimoiy hayotning ko'pgina sohalarida muhim rol o'ynagan yirik siymolardan biri Zahiriddin Muhammad Boburdir. U atoqli davlat arbobi, sarkarda, iste'dodli shoir, adib, zakovatli olim va tarjimon bo'lgan.

Bobur adabiyot, san'at, tarix va ilm-fanning turli sohalarida ijod qildi, ajoyib tadqiqotlar yaratdi. Uning asarlari o'zbek tili, adabiyoti va madaniyatining ravnaq topishiga beqiyos hissa bo'lib qo'shildi. Boburning ilmiy-adabiy merosi hozir ham o'zining tarixiy-ma'rifiy, ilmiy va estetik qimmatini saqlab kelmoqda. Uning ishlari ilmiy jihatdan katta ahamiyat kasb etgani bois G'arb tarixchilarining diqqatini doimo o'ziga tortib kelgan. O'rta Osiyo, Afg'oniston, Hindiston va Eron tarixi bilan shug'ullanuvchi barcha mutaxassislar uchun noyob ilmiy manbalardan biriga aylangan.

Boburning tengi yo'q tarixiy-badiiy asari, XV–XVI asr o'zbek adabiy tilining klassik obidasi, o'zbek nasrining nodir yodgorligi, fanning tarix, jug'rofiya, etnografiya va boshqa sohalarida haqida qimmatli ma'lumot beruvchi, K. Marks asarlarida tilga olingan, akademik V. Bartoldning yuqori bahosiga sazovor bo'lgan, venger sharqshunosi X. Vamberi tomonidan Yuliy Sezarning "Kommentariylari" bilan bir qatorda qo'yilgan mashhur va ma'lum "Boburnoma" shu kungacha o'nlab jahon xalqlari tillariga tarjima qilingan, turli millat kitobxonlarini o'ziga rom etib kelmoqda.

Boburni jahonga tanitgan eng yirik asari, shubhasiz, "Boburnoma"dir.

"Boburnoma" dastlab muallif tomonidan qanday nomlanganligi noma'lum, lekin Boburning o'z so'zi va uning qizi Gulbadanbegimning "Humoyunnoma" asaridagi ma'lumotlarga qaraganda, bu asar avval "Voqe'noma" deb atalganligini taxmin qilish mumkin. Bobur bir ruboiysida quyidagicha yozadi:

Bu olam aro ajib alamlar ko'rdu,
Olam elidin turfa sitamlar ko'rdu.
Harkim bu voqe'ni o'qur, bilgaykim,
Ne ranju, ne mehnatu, ne g'amlar ko'rdu.

Gulbadanbegim o'zining "Humoyunnoma" asarida Bobur hayoti bilan bog'liq voqealarni tasvirlar ekan, shunday yozadi: "Garchi bu so'zlar podshoh hazratlarining voqealari bilan bog'liq bo'lsa-da, ularning hayoti va faoliyati haqida qimmatli ma'lumot beradi..."

Asar yaratilgan davridan boshlab tarixchilar, geograflar, shoir va olimlarning diqqatini o'ziga tortdi, bir necha asrlar davomida kitobxonlarning sevimli asariga aylandi.



“Boburnoma” — qomusiy kitobdir. Unda Oʻrta Osiyo, Afgʻoniston va Hindiston xalqlarining tarixi, ijtimoiy-siyosiy hayoti, turmush tarzi, mazkur mamlakatlar geografiyasi, oʻsimliklar va hayvonot dunyosi haqida batafsil maʼlumotlar keltiriladi. Shuningdek, XV–XVI asrlarda yashagan koʻplab tarixiy shaxslarning xarakteri, tarixiy voqealarning jonli tasviri chizib beriladi. Eng asosiysi, asarda muallifning atoqli sarkarda, zabardast adib sifatidagi ziddiyatli va shiddatli hayoti, chuqur ruhiy kechinmalari oʻz ifodasini topgan. Bu hol “Boburnoma”ning yuksak badiiy asar namunasi ekanidan dalolat beradi.

Bu kitoblarda tarixiy fakt, badiiy toʻqima, hikoya hamda oddiy bayon, detallar orqali konkret va jonli tasvir, shu bilan birga ilmiy xulosalar izhori bir-birini almashtirib turadi. Chunonchi, masalan, Mirxondning “Ravzat us-safo” asari va Zayniddin Vosifiyning “Badoe’ ul-vaqoe” nomli kitobida XV asrda boʻlib oʻtgan voqealar aks ettirilgan boʻlib, mualliflar oʻzlari bevosita shohid boʻlgan hodisalarni bayon qilganlar. Ammo koʻp oʻrinlarda (xususan, “Badoe’ ul-vaqoe”da) bu tarixiy voqealar shunday jonli, qiziqarli va taʼsirchan tarzda tasvirlanganiki, kitobxon uni bevosita badiiy asar oʻqiyotgandek zavq bilan mutolaa qiladi.

Navoiyning Jomiyga bagʻishlangan “Xamsatul-mutahayyirin” asari ham bunga yorqin misoldir. Unda Abdurahmon Jomiy bilan Navoiyning oʻziga xos xarakterlari chizib berilgan. Bu asarni kichik hikoyalardan tarkib topgan badiiy doston deb atash mumkin.

“Boburnoma” xususida ham shuni aytish mumkin. Faqat bu asarda badiiy tasvir turli sohalarga oid ilmiy maʼlumotlar bilan omuxta qilingan. Asarning hajman kattaligi, voqealarning koʻpligi shunga olib kelganki, unda tasvirlangan kishilarning oʻziga xos xulq-atvori, yurish-turishi, mijozi, tabiati, xullas, individual shaxs sifatidagi belgilari baʼzan juda aniq gavalantirilgan.

Zahiriddin Muhammad Boburning juda ham koʻp qirrali faoliyatidagi ijobiy tomonlari uchun barcha davrlarda qadrlab kelingan. Bobur tarix maydonida paydo boʻlgan davr juda katta,

murakkab va ziddiyatli hodisalarga toʻla edi. Boburning ilmiy va adabiy faoliyati ana shu hodisalarga bogʻliq boʻlib, uning taqdirida oʻsha hodisalar katta rol oʻynagan.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bobur Z. M. *Boburnoma*. – Toshkent: Fan, 1960.
2. *Gulbadanbegim. Humoyunnoma*. – Toshkent: Fan, 1959.
3. Bartold V. V. *Turkiston moʻgʻullar istilosi davrida*. – Toshkent: Fan, 1990.
4. Vamberi H. *Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi*. – Toshkent: Sharq, 1997.
5. Navoiy A. *Xamsatul-mutahayyirin*. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot, 1982.
6. Vosifiy Z. *Badoe’ ul-vaqoe*. – Toshkent: Fan, 1979.
7. Mirxond. *Ravzat us-safo*. – Toshkent: Fan, 1983.
8. Karimov N. *Oʻzbek adabiyoti tarixi*. – Toshkent: Oʻqituvchi, 2008.



ГУЛНОРАХОН ОМАНОВА

Старший преподаватель
кафедры узбекского и
русского языков НВУЗ
«University of Economics and
Pedagogy»

З. М. Бобур - многогранный наследник, достойный династии темуридов

Annotatsiya: Maqolada Temuriylar sulolasining vakili, Buyuk Mo'g'ullar imperiyasining asoschisi, "Boburnoma" memuar asari hamda g'azal janrida yaratilgan she'riy asarlar muallifi Zahiriddin Muhammad Boburning serqirra shaxsi tahlil qilinadi. Uning lirikasidagi musofirlik, muhabbat va taqdirni falsafiy anglash bilan bog'liq romantik motivlarni o'rganishga alohida e'tibor qaratiladi. Maqoladagi barcha tarixiy va adabiyotshunoslikka oid mulohazalar ilmiy manbalarning aniq sahifalariga berilgan havolalar asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Zahiriddin Bobur, Temuriylar, g'azal, "Boburnoma", chig'atoy she'riyati, romantizm.

Захириддин Мухаммад Бобур (1483–1530) занимает исключительное место в истории Востока как личность, в которой органично соединились военная доблесть, государственная мудрость и художественное дарование. Его принадлежность к династии Темуридов и раннее приобщение к политической борьбе определили драматизм жизненного пути, нашедший отражение как в

мемуарной прозе, так и в поэтическом творчестве (1:12–15).

Актуальность исследования обусловлена необходимостью комплексного рассмотрения личности Бабура в единстве исторического и литературного аспектов, что позволяет глубже понять процессы индивидуализации восточной поэзии начала XVI века (2: 214–216).



Захириддин Бабур родился в Андижане в семье правителя Ферганы Умаршейха Мирзы, прямого потомка Амира Темура (4: 47). Уже в возрасте двенадцати лет он унаследовал престол, о чём подробно сообщает сам автор в «Бабур-наме» (1: 28–30).

Воспитание Бабура проходило в условиях высокоразвитой культуры темуридского двора, где особое значение придавалось поэзии, истории и философии. Влияние литературной среды, связанной с именем Алишера Навои, отмечается исследователями как один из ключевых факторов формирования поэтического вкуса Бабура (2: 233).

Военная деятельность Бабура характеризуется чередой поражений и побед, что сформировало его как стратега и политика. Потеря Самарканда и вынужденное изгнание из Мавераннахра подробно описаны в

главах «Бабур-наме», посвящённых 1501–1504 годам (1: 76–89).

Кульминацией его военной карьеры стала победа при Панипате в 1526 году, положившая начало империи Великих Моголов (6: 132–135). Историки подчёркивают, что Бабур не ограничивался ролью завоевателя, а стремился к созданию устойчивой системы управления (13: 214).

«Бабур-наме» признаётся одним из наиболее достоверных автобиографических источников по истории Центральной и Южной Азии конца XV — начала XVI века (7: 3–5). Произведение отличается точностью датировок и детальностью описаний, что подтверждается сопоставлением с хрониками Хайдара Дулати (5:156–158).

Ключевой особенностью газелей Бабура является выраженная автобиографичность.

является выраженная автобиографичность. Лирический субъект его поэзии не маскируется за условным образом «влюблённого» (ашик), характерным для классической традиции, а напрямую соотносится с личностью автора — правителя, изгнанника и мыслителя. Мотивы разлуки, утраты и нестабильности судьбы в его газелях приобретают конкретное историко-психологическое наполнение, что позволяет говорить о сближении поэзии Бабура с ранними формами лирического реализма.

Особую ценность представляет субъективный характер повествования: Бабур открыто говорит о своих сомнениях, поражениях и эмоциональных переживаниях (1: 112–114), что сближает его с традициями ренессансной мемуаристики (8: 97).

Поэтическое наследие Захириддина Мухаммада Бабура, созданное преимущественно в жанре газели, представляет собой значительный этап в развитии чагатайской литературы, так как он писал на чагатайском языке и продолжал традиции классической восточной газели XVI века (9: 64–66). Формально следуя канонам классической восточной поэзии — соблюдение метра аруза, системы рифмовки и традиционной композиции газели, — Бабур одновременно демонстрирует стремление к индивидуализации лирического высказывания, что отличает его от многих современников. Вместе с тем исследователи отмечают отход Бабура от чрезмерной условности образов, характерной для позднеклассической поэзии (10:141).

Бабур строго соблюдает каноны газели — аруз, монориму, тематическую завершенность бейтов, — однако наполняет форму личным содержанием (12:88).

Центральными темами газелей Бабура являются любовь, разлука и тоска по родине. Мотив изгнания приобретает автобиографический характер и соотносится с конкретными историческими обстоятельствами жизни поэта (11: 52–54).

Любовная тематика в газелях Бабура выходит за рамки земного чувства и приобретает многослойный характер. С одной стороны, любовь изображается как страстное, драматичное переживание, сопровождаемое болью и внутренним конфликтом; с другой — она становится философской категорией, символизирующей поиск утраченной гармонии, духовной опоры и родины. Подобная полисемантность образа любви сближает поэтику Бабура с суфийской традицией. Исследователи указывают, что подобное понимание любви сближает Бабура с суфийской традицией, хотя он избегает прямой мистической символики (3: 201–203). Однако поэт сознательно избегает прямой мистической аллегоричности, отдавая предпочтение эмоциональной искренности. Любовь в поэзии Бабура интерпретируется как универсальная категория, объединяющая земное и философское начала.

Система художественных образов в газелях Бабура опирается на классический символический ряд восточной поэзии — сад, весна, цветок, соловей, вино, — однако эти образы нередко утрачивают условную декоративность и наполняются индивидуально-авторским смыслом. Так, образ сада у Бабура становится метафорой утраченного родного пространства, а мотив весны — кратковременного возрождения надежды, обречённой на исчезновение. Образы сада, весны, цветка и соловья в газелях Бабура сохраняют традиционную символику, но получают индивидуально-авторскую окраску (9: 91–93). Подобная семантическая трансформация традиционных символов свидетельствует о новаторском подходе поэта к жанру газели. Антитеза «власть — одиночество» является одним из ключевых композиционных приёмов его лирики (10: 149).

Особого внимания заслуживает эмоциональный строй газелей Бабура, характеризующийся внутренней напряжённостью и драматизмом. Поэт часто использует антитезу как основной композиционный приём,

противопоставляя власть и одиночество, внешнее величие и внутреннюю опустошённость, мечту и реальность. Данный приём усиливает исповедальный характер лирики и сближает её с романтической эстетикой более поздних эпох.

Языковая ткань газелей Бабура отличается ясностью и лаконизмом. В отличие от усложнённой метафорики поздней классической поэзии, он стремится к точности выражения и естественности интонации. Это позволяет рассматривать его творчество как важный этап в демократизации поэтического языка чагатайской литературы и расширения её художественных возможностей.

По утверждению Эргашева, язык газелей отличается простотой и ясностью, что рассматривается как шаг в сторону демократизации чагатайской поэзии (12: 104).

Таким образом, газели Захириддина Мухаммада Бабура представляют собой не только продолжение классической восточной традиции, но и качественно новый этап её развития. Их литературоведческая ценность заключается в синтезе канонической формы, глубокой личностной рефлексии и художественного новаторства, что позволяет рассматривать Бабура как одного из предтеч индивидуально-романтического направления в восточной поэзии.

Список использованной литературы

1. Бабур З.М. Бабур-наме. — Ташкент: Фан, 1993.
2. Бертельс Е.Э. История персидско-таджикской литературы. — М.: Наука, 1960.
3. Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. — М., 1965.
4. Азимджанова С. Темуриды и их культурное наследие. — Ташкент, 2001.
5. Хайдар Дулати. Тарих-и Рашиди. — Алматы, 2003.
6. Lane-Poole S. Babar. — London, 1899.
7. Beveridge A.S. The Baburnama in English. — London, 1922.
8. Брагинский И.С. Литература Востока. — М.: Высшая школа, 1983.
9. Эркинов А. Поэтика чагатайской литературы. — Ташкент, 2010.
10. Куделин А.Б. Восточная лирика. — М., 2005.
11. Хамидов Х. Романтические мотивы в поэзии Бабура. — Самарканд, 2015.
12. Эргашев Б. Чагатайская поэзия XVI века. — Ташкент, 2012.
13. Rizvi S.A.A. The Wonder That Was India. — London, 1987.





MOHINUR ABDURAHMONOVA

**“University of economics and pedagogy” NOTM
o‘qituvchisi**

Bobur she'riyatida janr xususiyatlari va poetik shakllar

Аннотация: В данной статье на научной основе анализируется жанровая система, поэтические формы и художественно-эстетические особенности поэзии великого мыслителя и поэта Захириддина Мухаммада Бабура. Рассматривается место, занимаемое такими жанрами, как газель, рубаи, кут, маснави и фард в поэзии Бабура, их содержание, философская направленность и формальное совершенство. Кроме того, освещается вклад поэта в развитие тюркской (чагатайской) литературы, мастерство использования системы аруз и специфические аспекты его поэтического мышления. В ходе исследования на основе научных данных обосновывается органическая связь поэзии Бабура с традиционной восточной поэтикой и его индивидуальным творческим образом.

Ключевые слова: Бабур, лирика, жанр, газель, рубаи, поэтическая форма, аруз, чагатайская литература, художественное мышление.

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483–1530) o‘zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandaligidan biri bo‘lib, u nafaqat davlat arbobi va tarixchi, balki yuksak did va teran tafakkur sohibi bo‘lgan shoir sifatida ham adabiyot tarixida muhim o‘rin egallaydi. Bobur she‘riyati o‘zining janr rang-barangligi, poetik shakllarning mukammal qo‘llanilishi va samimiy lirizmi bilan ajralib turadi. Shoir ijodi Alisher Navoiy an‘analari zaminida shakllangan bo‘lsa-da, unda individual uslub va shaxsiy kechinmalar ustuvorlik qiladi. Mazkur maqolaning maqsadi — Bobur she‘riyatida qo‘llanilgan asosiy janrlar va poetik shakllarni ilmiy jihatdan tahlil qilish, ularning mazmun-

bo‘lishiga qaramay, mazmunan nihoyatda chuqur va umumlashtiruvchi xarakterga ega. Bobur ruboiylarida hayotiy tajriba va shaxsiy kuzatuvlar umumfalsafiy xulosalar bilan uyg‘unlashadi. Bu jihat ruboiylarni shoir tafakkurining ixcham, ammo mukammal ifodasi sifatida baholash imkonini beradi. Shuningdek uning lirikasida qit‘a va fard janrlari axloqiy-didaktik mazmunni ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. Bu janrlarda shoir jamiyat, inson xulqi, do‘stlik va adolat masalalariga munosabat bildiradi. Qit‘alar ko‘pincha muayyan voqea yoki holatga munosabat tarzida yaratilgan bo‘lib, muallifning ijtimoiy qarashlarini ochib beradi. Bobur she‘riyatida aruz tizimi mukammal



mohiyatini ochib berishdan iborat. Bobur lirikasida g‘azal yetakchi janr hisoblanadi. Shoir g‘azallarida ishqiy kechinmalar, vatan sog‘inchi, hayotning o‘tkinchiligi va shaxsiy taqdir bilan bog‘liq iztiroblar markaziy o‘rin tutadi. Bobur g‘azallari sodda, tabiiy va samimiy ohangi bilan ajralib turadi. U ko‘pincha tashbeh va istioralarni me‘yorida qo‘llab, mazmunning aniqligiga e‘tibor beradi. Bobur g‘azallarida oshiq obrazi ko‘pincha real shaxs sifatida namoyon bo‘lib, mavhum tasavvufiy timsollardan ko‘ra hayotiy kechinmalar ustuvorlik qiladi. Bu holat shoir g‘azallarini xalqona ruhga yaqinlashtiradi.

Bobur ijodida ruboiy janri alohida falsafiy yuklama bilan ajralib turadi. Shoir ruboiylarida inson umri, taqdir, zamon, davlat va qudratning bebaqoligi kabi masalalar teran mushohada qilinadi. Ruboiylar qisqa

egallangan. Shoir turli bahrlardan mohirona foydalanib, she‘r musiqiyiligini ta‘minlaydi. Vazn va mazmun uyg‘unligi Bobur she‘rlarining estetik ta‘sirchanligini oshiradi. Shuningdek, Bobur poetikasida tashbeh, istiora, kinoya va mubolag‘a kabi badiiy vositalar tabiiy va sun‘iylikdan xoli tarzda qo‘llaniladi. Tabiat manzaralari, gul, bog‘, daryo, tog‘ obrazlari shoirning ichki kechinmalarini ifodalashda ramziy vazifa bajaradi. Bobur she‘riy tili sodda va ravon bo‘lib, chig‘atoy adabiy tilining go‘zal namunaligidan biridir. Shoir xalqona iboralar bilan mumtoz poetik an‘analarni uyg‘unlashtirgan. Bu holat Bobur she‘riyatining o‘qishli va ta‘sirchan bo‘lishini ta‘minlagan. Xulosa qilib aytganda, Bobur she‘riyati janr va poetik shakllar rang-barangligi, mazmuniy teranlik va badiiy soddalik uyg‘unligi bilan ajralib turadi.

Shoir g'azal va ruboiy janrlarini yangi hayotiy ruh bilan boyitib, chig'atoy adabiyotining rivojiga salmoqli hissa qo'shgan. Bobur poetik merosi Sharq mumtoz adabiyotidagi an'ana va yangilik uyg'unligining yorqin namunasi sifatida bugungi kunda ham ilmiy va estetik ahamiyatini yo'qotmagan. Bobur she'riyati Sharq mumtoz adabiyotining mustahkam an'analari — xususan, fors-tojik va turkiy poetika tajribasi zaminida shakllangan. Shoir Alisher Navoiy, Lutfiy, Hofiz Sheroziy kabi buyuk adiblarning ijodiy maktabidan samarali foydalangan. Biroq Bobur ijodini faqat taqlid mahsuli sifatida baholash mumkin emas. U an'anaviy janr va poetik shakllarga yangi mazmun, hayotiy realizm va shaxsiy kechinmalar olib kirgan. Bobur she'riyatidagi innovatsion jihatlardan biri — avtobiografik ruhning kuchliligidir. Mumtoz lirika uchun xos bo'lgan umumiy oshiqma'shuqa timsollari Boburda ko'pincha real tarixiy shaxs va voqealar bilan bog'lanadi. Bu holat uning she'rlarini tarixiy-biografik manba sifatida ham qimmatli qiladi. Muhim janr-xususiy belgilari-dan biri — vatan sog'inchi va hijron motividir. Shoir hayotining katta qismi surgun, ko'chish va siyosiy kurashlar bilan o'tganligi sababli bu motiv uning g'azal va ruboiylarida doimiy tarzda uchraydi. Vatan mavzusi Bobur she'riyatida romantik ideallashtirishdan ko'ra, dardli va samimiy iztirob sifatida ifodalanadi. Ayniqsa, Andijon va Movarounnahr bilan bog'liq misralar shoirning ruhiy olamini ochib beradi. Bu jihat Bobur lirikasini sof ishqiy she'riyat doirasidan chiqarib, ijtimoiy-psixologik mazmun bilan boyitadi. Bobur she'riyatida tasavvufiy qarashlar mavjud bo'lsa-da, ular markaziy o'rinni egallamaydi. Shoir ko'proq dunyoviy tafakkur, hayotiy haqiqat va insoniy kechinmalarni kuylaydi. Tasavvufiy obrazlar (falak, qismat, fano, baqo) ko'pincha ramziy vosita sifatida xizmat qiladi. Bu jihat Boburni Navoiy kabi chuqur tasavvufiy shoirlardan farqlaydi. Bobur uchun hayot — real voqelik, inson esa faol subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, Bobur lirikasida tasavvuf va realizm o'ziga xos muvozanat hosil qiladi. Ayrim she'rlar aniq

bir janr doirasidan chiqib, janrlararo xususiyat kasb etadi. Masalan, ayrim g'azallarda ruboiyga xos falsafiy umumlashmalar, qit'alarda esa lirik kechinmalar kuchli seziladi. Bu holat shoirning poetik tafakkuri moslashuvchan va erkin ekanini ko'rsatadi. Janrlararo sintez Bobur she'riyatining badiiy imkoniyatlarini kengaytirib, uni mumtoz adabiyotdagi qat'iy janr chegaralaridan qisman ozod etadi. Natijada Bobur ijodi o'z davri uchun yangicha estetik hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Uning she'riyati keyingi davr o'zbek va boburiylar adabiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Uning lirik uslubi, soddaligi va samimiyligi Mashrab, Munis, Ogahiy kabi shoirlar ijodida davom ettirilgan. Ayniqsa, shaxsiy kechinmalarni ochiq ifodalash an'anasi Bobur ijodi orqali mustahkamlangan. Bobur she'riy merosi bugungi adabiyotshunoslikda janr poetikasi, muallif shaxsi va tarixiy kontekst masalalarini o'rganishda muhim nazariy manba bo'lib xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, Zahiriddin Muhammad Bobur she'riyati janr va poetik shakllarning mazmuniy yangilanishi, an'ana va innovatsiya uyg'unligi bilan ajralib turadi. Shoir g'azal, ruboiy, qit'a va boshqa lirik janrlarni shaxsiy hayotiy tajriba, tarixiy voqelik va falsafiy mushohada bilan boyitgan. Bobur ijodi chig'atoy adabiyotida yangi bosqichni boshlab bergan bo'lib, uning poetik merosi nafaqat estetik, balki ilmiy-tarixiy ahamiyatga ham egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bobur, Z.M. *Boburnoma*. – Toshkent: Fan, turli nashrlar. 2008-145 b.
2. Bobur, Z.M. *Devon*. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot. 2005-106 b.
3. Navoiy, A. *Mukammal asarlar to'plami*. – Toshkent. 2012- 146 b.
4. Fitrat, A. *O'zbek adabiyoti namunalari*. – Toshkent. 2015-186 b.
5. Karimov, N. *O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi*. – Toshkent. 2010-125 b.
6. Qayumov, A. *Bobur va boburiylar adabiyoti*. – Toshkent. 2006-98 b.

*Zahiriddin
Muhammad Bobur
shaxsi va ijodining
psixologik hamda
metodologik tahlili*



NARGIZA KOSIMOVA

**“University of economics and
pedagogy” NOTM
Ijtimoiy-gumanitar fanlar
kafedrasi professori, p.f.n.**

Аннотация: В данной статье представлен анализ личности и творчества великого государственного деятеля, поэта и мыслителя Захириддина Мухаммада Бабур, основанный на научном, психологическом и методологическом подходе. Жизненная деятельность Бабура, его социально-политические взгляды, творческое мышление и процессы формирования личности изучаются с точки зрения современной психологии и исторической методологии. Произведение «Бабур-наме» интерпретируется как уникальный источник психологии личности. Результаты исследования показывают, что личность Бабура является многогранной, устойчивой и творчески зрелой.

Ключевые слова: Захириддин Мухаммад Бабур, Бабур-наме, психология личности, историческая методология, творческое мышление, лидерство.

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483–1530) — o‘zbek va jahon tarixida betakror iz qoldirgan shaxsdir. U nafaqat temuriylar sulolasining yorqin vakili, balki o‘z davrining yetuk shoiri, tarixchisi, geograf olimi va mohir sarkardasi sifatida ham tanilgan. Bobur shaxsini o‘rganish bugungi kunda faqat tarixiy yoki adabiy jihatdan emas, balki psixologik va metodologik yondashuvlar asosida ham yo‘shlar tarbiyasida dolzarb masaladir.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi — Bobur

Psixologik tahlil metodi — shaxsiy kechinmalar, motivatsiya va emotsional holatlarni aniqlash;

Matnshunoslik va germeneytik metod — “Boburnoma” matnini chuqur talqin qilish;

Korporativ metod — Bobur shaxsini boshqa tarixiy shaxslar bilan qiyoslash.

Mazkur metodlar uyg‘unligi tadqiqotning ilmiy asoslanganligini ta‘minlaydi.

Muhtaram yurtboshimiz Sh.M. Mirziyoyev buyuk ajdodlar merosini tiklash va milliy tarixiy



shaxsini kompleks ilmiy yondashuv asosida tahlil qilish, uning ijodi va hayotiy qarorlarida namoyon bo‘lgan psixologik omillarni aniqlash hamda tarixiy metodologiya nuqtayi nazaridan baholashdan iborat.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

Tarixiy-analitik metod — Bobur hayoti va faoliyatini davriy kontekstda tahlil qilish;

xotirani mustahkamlash masalasida buyuk mutafakkir shaxslariga alohida e‘tibor qaratib kelmoqda. Zero, buyuk alloma Z.M. Boburni jahon tarixida o‘chmas iz qoldirgan shoir, olim va davlat arbobi sifatida baholaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarorida

Bobur merosining milliy va umuminsoniy ahamiyati haqida quyidagicha ta'kidlaydi: "Zahiriddin Muhammad Bobur jahon tarixida o'chmas iz qoldirgan betakror siymolardan biridir. Uning boy ilmiy-ijodiy merosi milliy madaniyatimiz va jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotida alohida o'rin egallaydi."-ushbu fikr Prezidentimizning Z.M.Bobur shaxsiga tarixiy-madaniy va shaxsiylik (personalistik) yondashuvini aks ettiradi.

Tarixiy manbalarda keltirishicha, Sharq mumtoz o'rta asr arab-musulmon mutafakkirlari orasida jahon sharqshunosligida eng e'rtta o'rganila boshlagan, ma'lum va mashhur bo'lgan Bobur darajasida shuhrat topgan shaxslar kam bo'lgan e'kan. Bobur me'rosi faylasuflar, tarixchilar, adabiyotshunoslar, tilshunoslar, san'atshunoslar, etnograflar hamda hayvonot olamini o'rgangan soha vakillari va hatto arxitektorlarning ilmiy tadqiqot ob'ekti sifatida tahlillar qilingan ekan.

Biz ham maqolamizda «Zahiriddin Muhammad» — uning ismi, «Bobur» adabiy taxallusi deb mulohaza yuritimiz. Aslida esa, Mirzo Olim Mushrifning «Ansob us-salotin fi tavorixi xavoqin» («Sultonlar nasablari va xoqonlar tarixi») nomli tarixiy asari va Bobur asarlariga ko'ra uchala so'z ham shoh va shoirimizning ismi sharifidir. Yuqoridagi tarixiy asari ma'lumotlariga qaraganda, Umarshayx Mirzoning to'ng'ich o'g'liga bu ismni Xoja Ubaydulloh Ahror qo'ygan. Ism so'zlarining sharhiga kelsak: Zahiri dini Muhammad — Muhammad dinining tayanchi, posboni, demakdir. Bobur — babr (sher) sifat, sherdek degan ma'noga molikdir. Hindistonda 3 yarim asrdan oshiq hukm surgan Buyuk davlat asoschisi, o'zidan qimmatbaho me'ros qoldirgan buyuk alloma shoir sifatida tarix zarvaraqlariga nomini muhrlab qo'ygan ulug' zot. Betakror asari "Boburnoma" deb nom olgan.

"Boburnoma" asari bilan butun dunyo ahliga mashhur, betakror g'azal va ruboiylari bilan insonlar qalbidan joy olgan shoir. Uning a'ruz vaznlariga bag'ishlangan "Mufassal", jang ilmiga atalgan "Harb ilmi", Musiqa

ilmiga bag'ishlangan asari, "Mubayyin" deb nomlanuvchi islom ahkomlariga bag'ishlangan asari, "Volidiya" asari, shuningdek o'zi ixtiro etgan Xatti Boburiy va boshqa asarlari bugungi kunda tadqiqotchilar tomonidan o'rganib kelinmoqda. Bobur hayoti va ijodini o'rganish bo'yicha ayniqsa mustaqillikdan keyin juda katta ishlar amalga oshirildi. Bobur asarlari bir necha bor nashr ettirildi. Olim Porsoxon Shamsiev tomonidan Boburnoma chop etildi. Vahob Rahmonov va Karomat Mullaxo'jaevalar tomonidan hozirgi o'zbek tiliga Boburnomaning tabdili yaratildi,

Bobur ensiklopediyasi yaratildi. Xalqaro Bobur fondini tashkil e'tgan olim Zokirjon Mashrabov kabi fidoiy insonlar, adib qo'lyozmalarini O'zbekistonga ko'chirib olib kelish borasida talay ishlar qilindi. Sanoqsiz dissertatsiyalar himoya qilindi. Boburni biz doimo shoh va shoir deb tilgan olamiz. Ya'ni u podishohlikni ham shoirlikni ham yuksak darajada olib brogan shaxsdir.

Temuriy shahzodalar ichida eng jur'atli, eng jasur va doimo o'z oldiga yuksak maqsadlar qo'yadigan sarkarda bo'lgan. Yosh bo'lishiga qaramasdan Temur taxtini egallashga, temur saltanatini tiklashga harakat qilgan va qaysidir ma'noda buning ustidan chiqqan temuriy zoda edi. Zero, shu davrda undanda yoshi katta va tajribali temuriy zodalalar bo'lsada, ilmi-zehni va aql-idrokda tengi yoq xarizmatik olim bo'lgan.

Buyuk adibshunos sifatida Alisher Navoiydan keyingi o'rinni egallash uchun juda katta quvvai hofiza va dahlo darajasidagi iste'dod kerak edi, mana shu yuksaklikka Bobur erishdi. Ko'pincha, Boburning shohlik mas'uliyati shoiriligiga xalaqit bergan degan mulohazalar aytiladi. Ammo aksincha, uning shohligi asarlarini qimmatbaho durlar bilan bezalishiga yordam berdi. Bu durlar haqiqat durlaridir. Aksari saroy shoirilari yolg'on yozishga majbur bo'lganlar, hech bo'lmaganda mag'lubiyatlarni yashirib, g'alabalarni oshirib ko'rsatishgan. Boburnomaning avvalida Bobur bu kitobda ya'ni Vaqo'eda hech narsani o'zgartirmasdan faqat haqiqatni yozishga ahd qilganligini yozadi. Boburnoma asarini dunyo

olimlari tomonidan keng o'rganilishining asosiy sababi ham shu bo'lgan. Bobur o'z ahdiga amal qilib asarda xoh yaxshi bo'lsin, xoh yomon bo'lsin faqat haqiqatni yozadi. Boburni o'rganish bizga nima beradi?

Turkiylarning buyuk ajdodi sifatida uning tarixini bilish bizning burchimizdir, chunki o'z tarixini bilish bu munosib kelajakni qurish uchun muhim asosdir;

Boburga o'xshagan buyuk ajdodlarimizga nisbatan yoshlarimiz qalbida muhabbat paydo bo'lishi kerak.

Hozirda shunday muhabbat bormi? Bor, lekin Bobur shaxsini juda yaxshi bilmaymiz. Ko'pincha, Bobur haqidagi fikrlar mulohazalar faqat shoir tavalludi oldidan gapiriladi, yodga olinadi tadbirlar uyushtiriladi. Bugun bizlar nimalar bilan yashayapmiz: kunimiz telegram, instagram, feysbuk kabi ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan turli axborotlar, televideniya berilayotgan seriallar bilan o'tyapti. Yoshlar ongida bo'sh joy bo'lmaydi, u albatta nima bilandir to'ladi. Barkamol avlod ongini mana shunaqa mayda, maishiy muammolar, seriallardagi qahramonlar to'ldirayapti. Ular kimga o'xshashga harakat qilyapti, kimdan o'rnak olyapti? Qaysi bir turk serialidagi qahramon yoki koreys serialidagi qahramon ular uchun o'rnak bo'la o'ladi.

Chunki bir paytlar bizni ildizlarimizdan uzoqlashtirib qo'yishgan. Ular qanday inson bo'lgan, nima bilan yashagan, nimani yaxshi ko'rgan, nimani yomon ko'rgan. Qanday orzular qilgan, qanday his-tuygular, mashaqqatlar chekkan bu haqda bizda yetarli bilimlar yo'q.

Mustaqillikka eri'shganimizdan so'ng, Boburnomani butun dunyo kitobxonlari o'z tiliga tarjima qilib, qiziqib qolgani hesh kimga sir e'mas. Ular Bobur shaxsini bizdan ko'ra yaxshiroq yaqinroq qabul qilishadi. Masalan, o'sha Boburnomani ingliz tiliga tarjima qilgan Anet Beveridj xonim bu kitobda to'liq tarixiy faktlar borligi, adabiy qiymati uchun emas, balki Bobur shaxsiga yuksak hurmat paydo bo'ganligi uchun tarjima qilib ommaga yetkazganligini e'tirof etadi. Yana bir olim uni Yuliy Sezar bilan solishtirib, insoniy sifatleri bilan u Sezardan ham yuksak fazilatli shaxs sifatida e'tirof etadi.

Biz buyuk allomalarimiz haqida gapirganda ularni ko'pincha ideallashtirishga harakat qilamiz. Bu bir tomondan mazkur shaxslarga bo'lgan chuqur hurmatdan kelib chiqadi, ammo ana shuni o'zi ularni ommadan uzoqlashishiga ular haqidagi ma'lumotlarni soxtalashishiga olib keladi. Fikrimizcha, yoshlarimizga ularni oddiy inson sifatida tanitishimiz. Oddiy insonga xos kamchiliklar, ruhiy kechinmalar ularga ham xos ekanligini singdirishimiz buyuk ajdodlarimizning yoshlarimiz ongi va shuuriga ta'sirini oshirishga yordam beradi. Bobur asarlari tili oddiy xalq tiliga yaqin deyiladi. Uning nasriy asarlarini yoki ruboiy, g'azallarini oddiy o'quvchi asl manbadan o'qisa albatta tushunadi. To'g'ri yarim asrdan oshiq vaqt ichida tilda yuz bergan o'zgarishlar, muomaladan chiqqan arxaik so'zlarni tushunish biroz qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Lekin ko'pchilik so'zlar O'rta Osiyoda yashaydigan qardosh turkiy tillarning birida bo'lmasa birida uchraydi. Shu sababli, "Boburnoma" matnini o'rta maktab doirasida



kengroq o'rgatilib borishi maqsadga muvofiq. Yapon ta'lim tizimi haqida ma'lumotlarni tahlil etish jarayonida shu narsa ma'lum bo'ldiki, Yaponiyada boshlang'ich maktab dasturida zamonaviy yapon tili bilan bir qatorda o'rta asrlar yapon tili va klassik yapon tili va adabiyoti o'qitilar ekan. Ya'ni yapon xalqi yapon tilining so'z boyligi, an'analari yo'qolib ketmasligi, o'rta asr klassik yapon tilini ham bolalariga o'rgatish davlat ta'lim standarti bo'lib uni o'qitish majburiy e'kan. Bu holat o'rta maktab dasturini yanada qiyin bo'lishiga qaramasdan, ushbu o'qitish dasturining asosiy maqsadi, yaponlarni o'tmish tajribasini, tarixini yodda saqlash muhim e'kan. Shundagina, Navoiy va Bobur singari buyuk alloma shoirlarimiz asarlarini yoshlarimiz xuddi chet tilidagi murakkab asarlar sifatida qabul qilishmagan bo'lardi. Boburni o'rganish bizga nima manfaat beradi? Bugun yer yuzida ma'lum bir ma'noda ma'naviy tanazzul kechayotgan davr desak xato bo'lmaydi. Globallashuv jarayoni butun yer yuzini global tarmoq internet orqali bog'langanligi, internetning, ijtimoiy tarmoqlarning, televedeniyaning ta'lim va tarbiyadagi o'rni ortib borayotgan bir vaqtda munosib avlod tarbiyasi, nafaqat yoshlar o'zimizning ma'naviy axloqiy qarashlarimizni isloh qilishda Zahiriddin Muhammad Bobur singari o'rnak bo'la oladigan, bizning kim ekanligimizni ko'rsatib beradigan siymolarni o'rganish bu hayot-mamot masalasidir.

Xulosa o'rnida aytish joizki, buyuk shoh Z.M. Bobur shaxsini ilmiy, psixologik va metodologik yondashuvlar asosida o'rganish uning tarixiy siymosini yanada to'liq ochib beradi. Bobur — kuchli iroda, yuksak emotsional intellekt va ijodiy tafakkur egasi bo'lgan noyob shaxsdir. Uning merosi bugungi kunda ham shaxs kamoloti, liderlik va ijodiy rivoj masalalarida muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarori. Rasmiy manba: <https://www.president.uz/oz/lists/view/5870>
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk ajdodlar merosi — milliy g'ururimiz asosi. Nutqlar va chiqishlar to'plami. — Toshkent, 2023. Rasmiy sayt: <https://www.president.uz>
3. Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. — Toshkent: Fan, 2018.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. — Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
5. Hasanov S. Temuriylar davri madaniyati va ma'naviy hayoti. — Toshkent: Akademnashr, 2016.
6. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma/ Z.M. Bobur; O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi; Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi; xalqaro Bobur fondi. — Toshkent: "O'qituvchi" NMIU, 2017. - 14 bet





DURDONA ABDUSALOMOVA

“University of economics and pedagogy” NOTM o‘zbek va rus tili kafedrası o‘qituvchisi

“Boburnoma” va Bobur g‘azallarida muallif “Meni”

Аннотация: В данной статье анализируется формирование образа лирического «я» в творчестве Захириддина Мухаммада Бабура и его художественно-философская функция. В качестве объектов сравнительного изучения выбраны мемуары Бабура «Бабур-наме» и его лирические газели. Показано, как личность автора проявляется в двух различных художественных пространствах: в историко-нарративном дискурсе и в лирико-поэтическом выражении.

В «Бабур-наме» образ «я» интерпретируется в связи с историческим сознанием, памятью, опытом, ответственностью и политическим мышлением. Бабур не только описывает свою жизнь, но и стремится зафиксировать ее на уровне исторического документа. В его лирическом наследии образ «я» проявляется в центре внутренней духовности, переживаний и личных страданий, выражая с поэтическим мастерством такие эмоциональные состояния как любовь, тоска, разлука и сожаление.

Ключевые слова: Захириддин Мухаммад Бабур, «Бабурнаме», лирические газели, рубай, образ личного «я», психологически-субъективный лирический субъект, историческое сознание, внутренний мир, любовь, разлука, тоска, безнадёжность, ожидание, страдание, образы родины и чужбины, тоска по родине, муки любви, трагическая интонация, поэтическая доминанта, изгнанничество, поэтический код, образное мышление, художественно-философские функции, эстетический механизм.

Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida shaxsiy “men” obrazining shakllanishi va badiiy-falsafiy funksiyasini yoritish masalasida uning “Boburnoma” yodnomasi hamda lirik g‘azallari o‘zaro qiyosiy tahlil uchun muhim material hisoblanadi. Chunki Boburning ijodiy merosida muallif shaxsi ikki turli badiiy makonda — tarixiy-narrativ nutq va lirik-poetik ifoda doirasida namoyon bo‘ladi. Bu ikki makon, bir tomondan, bir-birini inkor qilmaydi, aksincha, Bobur shaxsiyatining turli qatlamlarini ochib beruvchi, bir-birini to‘ldiruvchi estetik mexanizmlar sifatida ko‘zga tashlanadi.

“Boburnoma” asari Boburning taqdiri, siyosiy faoliyati va tarixiy voqelikni idrok etish tajribasini birinchi shaxs pozitsiyasidan yoritgan yirik yodnomadir. Bu matnda muallif “men”i faqatgina hikoya qiluvchi subyekt emas, balki tarixiy hodisalarning bevosita ishtirokchisi, guvohi hamda ularni baholovchi ong sifatida qatnashadi. Shuning uchun “Boburnoma”dagi “men” obrazini tarixiy ong, xotira, tajriba, mas’uliyat, siyosiy tafakkur kabi kategoriyalar bilan bog‘liq holda talqin qilish mumkin. Mazkur yondashuv Boburning o‘z hayotini nafaqat bayon etish, balki uni “tarixiy hujjat” darajasida ishonchli tarzda qayd etishga intilgan mualliflik tamoyili bilan ham xarakterlanadi.

Boburning lirik merosida esa “men” obrazi boshqa bir estetik koordinatada — ichki ruhiyat, kechinma va shaxsiy iztirob markazida namoyon bo‘ladi. Xususan, Bobur g‘azallari inson qalbidagi muhabbat va sog‘inch, visol va hijron, orzu va armon kabi qarama-qarshi hissiy holatlarni yuqori poetik mahorat bilan ifodalashi bilan ajralib turadi. Bu yerda “men” obrazining asosiy vazifasi tarixiy voqelikni qayd etish emas, balki shaxsning ichki dunyosi, ruhiy ziddiyatlari va mavjudlik tajribasini badiiy til vositasida ochishdir. Demak, Bobur g‘azallaridagi “men” — ko‘proq hissiy-intuitiv, dramatik va ba‘zan falsafiy ohangdagi lirik subyektdir.

Mazkur maqolada Bobur ijodida “men” obrazining ikki xil matn maydonida —

“Boburnoma”dagi tarixiy-narrativ “men” hamda g‘azallardagi lirik-psixologik “men” sifatida shakllanish jarayoni tahlil qilinadi. Shuningdek, bu ikki obraz o‘rtasidagi ichki bog‘lanish, ma’no yuklari, poetik funksiyalar va ruhiy ziddiyatlar qiyosiy asosda yoritilib, Bobur shaxsiyatining badiiy rekonstruksiya amalga oshiriladi. Natijada Bobur ijodida “men” poetikasi bir tomondan tarixiy onging ifodasi, ikkinchi tomondan esa hijron va sog‘inch orqali chuqurlashgan lirik identitet ko‘rinishida shakllangan murakkab estetik hodisa sifatida talqin etiladi.

Boburning “Boburnoma” asarida muallif “men”ining namoyon bo‘lishi nafaqat autobiografik bayonning tabiiy natijasi, balki asar poetikasini belgilovchi asosiy mezonlardan biridir. Bobur matnda o‘zini bir vaqtning o‘zida tarixiy jarayonlarning ishtirokchisi va voqelikni kuzatuvchi baholovchi ong sifatida ifodalaydi. Bu esa “Boburnoma”ni oddiy xotira qaydlari doirasidan chiqarib, muallif shaxsiyatining tarixiy voqelikka munosabati, siyosiy tajribasi va ichki pozitsiyasini aks ettiruvchi manba darajasiga ko‘taradi. I.N.Aslonov ta’kidlaganidek, ““Boburnoma”dagi Bobur obrazini faqat kuzatuvchi qahramon sifatida emas, balki voqealar ichida shakllanayotgan, ularni boshqarayotgan va ularning oqibatini o‘z zimmasida his etayotgan faol subyekt tarzida talqin qilish mumkin”^[1]. Shunday ekan, asardagi “men” obrazida Bobur shaxsi tarixiy-hujjatchilik (siyosiy xotira) vazifasini ham bajaradi: u voqeani qayd etadi, fakti aniqlaydi, sabab-oqibatni ko‘rsatadi va shu orqali o‘z davrining tarixiy panoramasini yaratadi.

“Boburnoma”ning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, unda mualliflik pozitsiyasi tarixiy hodisalarni badiiy bezash yoki romantiklashtirishga emas, balki voqelikni rost va izchil yoritishga yo‘naltiriladi. Boburning voqealarni “haqiqat mezonini” asosida bayon qilishga intilishi uning tarixga sadoqatli munosabatini anglatadi. Shu ma’noda,

[1] Aslonov I.N. Appearance of Zahiriddin Muhammad Bobur in “Boburnoma” // Central Asian Journal of Theoretical and Applied Sciences. – 2022. – Vol. 3, Iss. 6. – B. 177–182.

“Boburnoma”dagi muallif “meni” o‘z hayotini ko‘rsatish bilangina cheklanmaydi, balki o‘zi guvoh bo‘lgan tarixiy jarayonlarni xotira, tafakkur va hujjatchilik mas‘uliyati bilan qayta tiklaydi. Demak, bu yerda “men” — shaxsiylikka berilib ketuvchi subyekt emas, balki o‘z tajribasini tarixiy ong mezonida tartibga soluvchi muallifdir.

Aslonovning qarashlariga tayangan holda aytish mumkinki, Bobur voqealarni kompozitsion jihatdan tartibli bayon etar ekan, asarning markazida bevosita Boburning o‘zi — muallif qahramon turganini ko‘rsatadi. Biroq bu holat matnning “subyektiv monolog”ga aylanishini anglatmaydi: Bobur o‘zini mutlaqlashtirmaydi, aksincha, voqealarni real tarixiy sharoit bilan bog‘liq tarzda ochishga, o‘z harakatlari va qarorlarini ham voqelik talablariga muvofiq tahlil qilishga intiladi. Shu sababli “Boburnoma”dagi tarixiy “men” obrazini realistik tasvir, tadrijiy (ketma-ket) tafakkur, sabablilik va baholash mezonlari bilan izohlash mumkin[2].

Asarning boshlanish qismida Boburning o‘n ikki yoshida taxtga o‘tirishi va bir zumda siyosiy hayot mas‘uliyatiga kirib borishi tasvirlanishi ham muallif shaxsiyatining ichki ziddiyatlarini ochib beradi. Bobur yodnomani an‘anaviy ravishda qudrat, saltanat yoki o‘z shon-shuhrati bilan emas, balki keskin burilish nuqtasi — ruhiy yuk va siyosiy sinov bilan boshlashi bejiz emas. Bu yerda shaxsning ulg‘ayish jarayoni, bolalik ruhiyati bilan hukmdor mas‘uliyatining to‘qnashuvi seziladi. Aslonovning ta‘kidlashicha, yosh Boburning ijtimoiy-siyosiy mojarolar markazida qolishi, uning zimmasiga yuklangan mas‘uliyat va vaziyat og‘irligi muallif “men”ining psixologik fonini kuchaytiradi. Natijada, “Boburnoma”dagi tarixiy “men” faqat “voqeani bayon qiluvchi qahramon” emas, balki fojiali ruhiy tajriba orqali shakllanayotgan tarixiy shaxs sifatida ham namoyon bo‘ladi.

“Boburnoma” poetikasida muallif “meni”ni ochib beruvchi yana bir muhim jihat — tabiat

va makon tasvirlarining vazifasidir. Peyzaj unsurlari bu asarda dekorativ fon bo‘lib qolmay, balki muallifning ichki kayfiyati, ruhiy holati va dunyoqarashi bilan uzviy bog‘lanadi. Tabiat manzaralari orqali Bobur voqelikni ko‘rish va his etish usulini namoyon qiladi: u tasvirlayotgan makon — faqat geografik hudud emas, balki muallifning xotirasi va ongida yashayotgan psixologik makondir. Shuning uchun ham “Boburnoma”ni faqat tarixiy hujjat sifatida talqin qilish bir tomonlama bo‘ladi: u ayni paytda muallifning xotira va tafakkur dunyosi, tarixiy ong shakllanishi va shaxsiy tajriba poetikasi mujassam bo‘lgan murakkab badiiy-narrativ matndir.

Umuman olganda, “Boburnoma”dagi tarixiy “men” Bobur shaxsiyatining intellektual tafakkuri, realistik kuzatuv, siyosiy-hayotiy tajribasi hamda mas‘uliyat bilan yo‘g‘rilgan xotira madaniyatini birlashtiruvchi estetik fenomen sifatida namoyon bo‘ladi. Bu “men” — voqeani ko‘ruvchi ham, uni yozuvchi ham, undan xulosa chiqaruvchi ham bo‘lgan muallif-subyektidir.

Boburning lirik merosida “men” obrazining poetik funksiyasi alohida o‘rin tutadi. Shoir g‘azal va ruboiylarida ko‘pincha shaxsiy ruhiy holat, muhabbat tajribasi, ayriliq dardi, sog‘inch, umidsizlik va intizorlik kabi kechinmalarni markazga chiqaradi. Bunday poetik holatda “men” obrazining vazifasi voqeani “hikoya qilish” emas, balki shaxsning ichki dunyosini ochish, uning ruhiy kechinmalarini badiiy obrazlar orqali intensivatsiya qilish, ya‘ni hissiy-estetik kuch bilan jonlantirishdan iborat bo‘ladi. Demak, Bobur she‘riyatidagi “men” — ko‘proq psixologik-subyektiv va iztirobga yo‘g‘rilgan lirik subyekt sifatida shakllanadi.

Tadqiqotlarda qayd etilishicha, Bobur lirik “men”ining asosiy semantik tayanchi muhabbat va hijron motivlari bilan uzviy bog‘langan. Xususan, Bekmirzayeva ta‘kidlaganidek[3],

[2] Bu haqda qarang: Aslonov I.N. “Boburnoma”da muallif psixologiyasining aks etishi // O‘zbekiston: til va madaniyat. – 2023. – №3(4). – B. 21–32; Aslonov I.N. Appearance of Zahiriddin Muhammad Bobur in “Boburnoma” // Central Asian Journal of Theoretical and Applied Sciences. – 2022. – Vol. 3, Iss. 6. – B. 177–182

Bobur idrokida “diyor” (Vatan) va “yor” (mahlub) tushunchalari bir-birini to‘ldiruvchi, bir-biriga singib ketgan ma’no qatlamlaridir. Bunda shoir ruhiyatida vatan sog‘inchi bilan ishq iztirobi parallel yo‘nalishda kechadi: biri ikkinchisini kuchaytiradi, ikkalasi birgalikda esa lirik “men”ning fojiali ohangini belgilaydi. Aynan shu jihat Bobur g‘azallarida “sog‘inch” mavzusining kuchli poetik dominantga aylanishiga sabab bo‘ladi. Hijron — shoir uchun oddiy ajralish emas, balki ma’naviy-ruhiy muvozanatni buzuvchi, borliqni qayta anglashga majbur qiluvchi ichki sinov sifatida namoyon bo‘ladi.

Bobur lirik matnlarida hijron holati ko‘pincha obrazli tafakkur orqali beriladi: ko‘z yoshi, qon, suv, jarohat, iztirob, musofirlik kabi timsollar shoirning ruhiy og‘riqlarini ifodalovchi poetik kod vazifasini bajaradi. Jumladan, “ko‘zdan oqayotgan suv”ning qon rangiga ko‘chishi kabi poetik yondashuv Bobur she‘riyatida kechinmaning intensivligini oshirishga xizmat qiladi: bu yerda oddiy ko‘z yoshi emas, balki qalb jarohatining badiiy ifodasi gavdalanadi. Shu ma’noda, Bobur g‘azallaridagi “men” — his-tuyg‘ularni boshdan kechiruvchi emas, balki iztirobni poetik tajribaga aylantiruvchi, uni ramz va timsollar orqali umumlashma darajaga olib chiqadigan ijodiy subyektdir.

Lirik “men”ning eng keskin va ta’sirchan jihatlaridan biri shundaki, Bobur ijodida hijron ko‘pincha Vatan va qadriyat tushunchalari bilan qorishib ketadi. Musofirlik ruhiyati shoir uchun vaqtinchalik holat emas, balki doimiy ichki tashvish, qaytish istagi va umid bilan kurashadigan murakkab psixologik vaziyatdir. Shu sababli Bobur g‘azallarida visol va hijron motivlari bir-birini inkor etmaydi, aksincha, dialektik uyg‘unlikda yashaydi: visol — orzu va ideal sifatida turadi, hijron esa shu idealning amalga oshmasligi oqibatidagi iztirob sifatida kuchayadi. Natijada lirik “men”ning ruhiy holatlari har doim harakatda: bir tomonda intilish,

boshqa tomonda alam; bir tomonda qaytish umidi, boshqa tomonda taqdirning ziddiyatli hukmi turadi.

Bobur lirik merosining yana bir muhim qirrasini shundaki, unda muhabbat faqat romantik kechinma sifatida emas, balki ma’naviy kamolot mezonini sifatida ham talqin qilinadi. Shoirning qarashlarida muhabbat insonni yuksaltiradigan, uning ruhiy yetukligini belgilaydigan ma’naviy kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, Bobur “men”ni nafaqat iztirob chekadigan oshiq, balki o‘z kechinmalarini tahlil qiladigan, muhabbat mohiyatini falsafiy-axloqiy mezonlar bilan baholaydigan ong egasidir. Bu hol Bobur lirikasida “men” obrazining psixologik chuqurligini, ichki tahliliy qatlamini kuchaytiradi.

Bobur “men” obrazini turli janr va uslubiy makonlarda turlicha poetik mexanizmlar orqali yaratadi. “Boburnoma” tarixiy-nasriy matn sifatida fakt, voqelik, sabab-oqibat va voqealarning izchilligiga tayanadi. Unda muallif “men”ni ko‘proq obyektivlikka intiladi: muallif o‘zini tarixiy jarayonlarning ichida turgan shaxs sifatida ko‘rsatsa-da, voqeani nisbatan xolis va pragmatik ruhda berishga harakat qiladi. Shuning uchun “Boburnoma”dagi “men” nutqida aniqlik, ravonlik, sodda ifoda va kuzatuvga tayangan tafakkur ustun keladi. Lirik she‘riyatda esa aksincha: muallif “men”ni o‘zining ichki holati bilan birga yashaydi. G‘azalda “men” dunyoni tashqi kuzatuv orqali emas, balki hissiy-intuitiv idrok orqali qabul qiladi. Shu sababli poetik tasvir, ramz, metafora, musiqiylik, takror va ohangdorlik kabi badiiy vositalar lirik subyektning ruhiy dinamikasini yetkazish uchun muhim estetik omilga aylanadi. Bu farq Bobur ijodidagi “men” poetikasining ikki qutbini ko‘rsatadi: biri — voqelikni tartibga soluvchi tarixiy ong, ikkinchisi — kechinmani chuqurlashtiruvchi lirik tafakkur.

Boburning “men” obrazida semantik qatlamlar ham rang-barangdir. Ruboiy va g‘azallarda

[3] Bekmirzayeva X. Bobur va ijodi haqida maqolalar // X.Davron kutubxonasi (<http://kh-davron.uz>)

inson umrining o'tkinchiligi, taqdirning mavhumligi, hayotning murakkabligi, yo'qotish va iztirobning ontologik mazmuni kabi falsafiy mushohadalar uchrab turadi. Bu esa lirik "men"ning faqat muhabbat azobiga qamalib qolmaganini, balki borliq muammolarini ham his etadigan, falsafiy umumlashmalarga moyil subyekt ekanini ko'rsatadi. Natijada Bobur lirikasidagi "men" — hissiylik va tafakkur, iztirob va idrok, sog'inch va falsafiy mushohada birlashgan murakkab poetik shaxsiyat sifatida namoyon bo'ladi.

Bobur ijodidagi "men" konsepsiyasini adabiyotshunoslik nazariyalari nuqtai nazaridan talqin qilish imkoniyati mavjud. M. M. Bakhtin konsepsiyasiga ko'ra, badiiy matn turli "ovozlar"ning munosabati orqali shakllanadi: epik-nasriy shakllarda muallif nutqi ko'pincha boshqa ijtimoiy va tarixiy ovozlardan o'zaro munosabatga kiradi. "Boburnoma" kabi yodnoma matnlarida aynan shunday holat kuzatiladi: muallif bahosi bilan tarixiy shaxslar, siyosiy qarama-qarshiliklar, muhit va zamon ruhi bir makonda to'qnashadi. Lirik g'azalda esa muallif "men"i ko'proq markazlashgan bo'lib, uning individual kechinmasi asosiy estetik o'qni tashkil etadi.

Bobur g'azallarida ko'z yoshi, qon, jarohat kabi obrazlar shunchaki poetik bezak emas, balki ruhiy og'riqning timsoli sifatida ishlaydi. Ushbu ramzlar orqali shoir "men"ining ichki dardi, yo'qotishlar va sog'inch bilan kurashi ko'rsatiladi. "Boburnoma"dagi tarixiy "men" esa ko'proq tashqi voqelikni tahlil qilishga moyil bo'lsa-da, unda ham muallifning ruhiy yukini sezdiruvchi psixologik fon mavjud. Shu tariqa Bobur ijodida "men" obrazining shakllanishi ijtimoiy-siyosiy muhit va shaxsiy idealistik dunyoqarash o'rtasidagi taranglikda yuzaga keladi: bir tomonda tarixiy zarurat, ikkinchi tomonda insoniy iztirob va qadriyatlar turadi.

Umuman olganda, Bobur ijodidagi "men" poetikasi shaxs va tarix, muhabbat va hijron, iroda va iztirob singari qarama-qarshi qatlamlarning bir nuqtada birlashuvi orqali shakllangan murakkab badiiy hodisadir.

Aynan shu murakkablik Bobur ijodining estetik salmog'ini belgilab, uning "men"ini nafaqat biografik, balki poetik-falsafiy fenomen darajasiga ko'taradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Aslonov I.N. "Boburnoma"da muallif psixologiyasining aks etishi // *O'zbekiston: til va madaniyat*. – 2023. – №3(4). – B. 21–32.
2. Aslonov I.N. Appearance of Zahiriddin Muhammad Bobur in "Boburnoma" // *Central Asian Journal of Theoretical and Applied Sciences*. – 2022. – Vol. 3, Iss. 6. – B. 177–182.
3. Bekmirzayeva X. Bobur va ijodi haqida maqolalar // *X.Davron kutubxonasi* (<http://kh-davron.uz>).
4. Jo'raqulov U.H. "Bu olam aro ajab alamlar ko'rdum". *O'zbekiston: til va madaniyat*. – 2023. – Vol. 3(4). – B. 21–32. (Bobur haqidagi sharh).
5. Khujamova N. "The Glory of the Motherland in the Work of Zahiriddin Muhammad Babur" // *American Journal of Pedagogical and Educational Research*. – 2023. – Vol. 19. – B. 320–324.
6. Rayis Q. Boburning muhabbat falsafasi // *Ilmiy axborot*. – 2023. – №1. – B. 365–373.
7. Ricoeur P. *Oneself as Another*. – Chicago: Univ. Chicago Press, 1992. (2000-yil ingl. nashri)
8. Bakhtin M.M. *Rabelais and His World*. – Bloomington: Indiana Univ. Press, 1984. (Dialogizm nazariyasi haqida)
9. Aristotel. *Poetics*. (Doston va qahramon tahlili).
10. Navoi A. *Majolis un-nafais*. – Toshkent, 1972. (Go'zal so'zlar majmuasi).
11. Nizomiy. *Layli va Majnun*. – Toshkent, 1988. (Muhabbat qudrati haqida doston).

*Творчество и
культурный
вклад Захириддина
Бабур в Индии*



ДАНИЯРБЕК ХАЙДАРОВ

**Преподаватель
кафедры узбекского и
русского языков НВУЗ
«University of Economics and
Pedagogy»**

Annotatsiya: Maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning Hindistonda bo'lgan davridagi adabiy ijodi va madaniy faoliyati batafsil yoritiladi. Uning hokimiyatga kelishidagi tarixiy sharoitlar, memuar va she'riy merosining o'ziga xos jihatlari, shuningdek, XVI asr Hindistonida madaniyat, san'at va ma'naviy hayot rivojiga qo'shgan hissasi tahlil qilinadi. "Boburnoma" asariga davr tarixi, madaniyati va etnografiyasi bo'yicha noyob manba sifatida alohida e'tibor qaratiladi. Xulosa sifatida Boburning Buyuk Mo'g'ullar imperiyasi madaniy asoslarini shakllantirishdagi muhim o'rni ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Zahiriddin Bobur, Boburnoma, Hindiston, adabiyot, madaniyat, Buyuk Mo'g'ullar imperiyasi.

Личность Захириддина Мухаммада Бабура занимает особое место в мировой истории и культуре. Он известен не только как выдающийся полководец и основатель Империи Великих Моголов в Индии, но и как талантливый писатель, поэт и мыслитель. Его многогранная деятельность стала связующим звеном между культурными традициями Центральной Азии, Ирана и Индии.

Приход Бабура в Индию в начале XVI века стал переломным моментом не только в политической истории региона, но и в его культурном развитии. Несмотря на постоянные военные кампании и государственные заботы, Бабур уделял большое внимание литературе, искусству и науке. Его творческое наследие позволяет глубже понять духовный мир правителя и культурную атмосферу эпохи.

Цель данной статьи — исследовать творчество Захириддина Бабура в индийский период его жизни и определить его вклад в развитие культуры Индии.

Захириддин Бабур родился в 1483 году в Андижане и происходил из династии Тимуридов. С юных лет он был вовлечён в политическую борьбу за власть в Мавераннахре, однако многочисленные поражения вынудили его покинуть родные земли. После укрепления своей власти в Кабуле, Бабур начал искать новые территории для создания прочного государства.

Индия в начале XVI века представляла собой политически раздробленный регион. Ослабление Делийского султаната создало благоприятные условия для завоеваний. В 1526 году Бабур одержал победу над Ибрахимом Лоди в битве при Панипате, что положило начало Империи Великих Моголов.

Индийский период жизни Бабура длился всего четыре года, однако именно в это время он смог реализовать себя не только как правитель, но и как культурный деятель.

Центральное место в творческом наследии Бабура занимает его автобиографическое произведение «Бабур-наме». Это произведение является уникальным явлением

в восточной литературе, так как сочетает в себе элементы мемуаров, хроники, путевых заметок и художественного повествования.

В индийской части «Бабур-наме» автор подробно описывает:

- природные условия Индии;
- климат и особенности ландшафта;
- сельское хозяйство и выращиваемые культуры;
- города, крепости и архитектуру;
- обычаи и традиции местного населения.

Бабур нередко сравнивает Индию с родными для него землями Центральной Азии, подчёркивая как достоинства, так и недостатки новой страны. Его наблюдения отличаются точностью, объективностью и критическим подходом, что делает «Бабур-наме» ценным источником не только для историков, но и для этнографов и культурологов.

Литературный стиль Бабура отличается простотой, ясностью и выразительностью. Он избегает излишней риторики и стремится к правдивому изображению событий. Автор не идеализирует ни себя, ни окружающих, открыто пишет о своих ошибках, сомнениях и переживаниях.

Для Бабура характерно внимание к деталям. Он описывает не только крупные исторические события, но и повседневную жизнь, природу, настроение людей. Такой подход придаёт его произведениям живость и эмоциональную насыщенность.

Важно отметить, что «Бабур-наме» было написано на чагатайском (староузбекском) языке, что сыграло значительную роль в развитии тюркской литературной традиции.

Помимо мемуаров, Бабур оставил значительное поэтическое наследие. В период пребывания в Индии он продолжал писать стихи, в которых отражались его внутренние переживания, размышления о судьбе, власти и быстротечности жизни.

Основные темы поэзии Бабура:

- тоска по родине;
- философские размышления о жизни и смерти;
- любовь к природе;



- одиночество правителя;
- нравственные ценности.

Его поэзия сочетает в себе традиции тюркской и персидской литературы. Она отличается искренностью, эмоциональной глубиной и гуманистическим мировоззрением. Поэтическое творчество Бабур оказало влияние на формирование литературной среды при дворе Великих Моголов.

Бабур понимал значение культуры как важного элемента государственной власти. Он активно поддерживал учёных, поэтов и деятелей искусства. При его дворе формировалась интеллектуальная среда, способствовавшая развитию науки и литературы.

Особое внимание Бабур уделял садово-парковому искусству. Он внедрил в Индии традицию создания садов типа чарбаг — симметричных парков с водоёмами и аллеями. Эти сады стали неотъемлемой частью могольской культуры и символом гармонии между человеком и природой.

Также при Бабуре началось формирование архитектурных традиций, которые достигли своего расцвета в последующие периоды правления его потомков.

Хотя правление Бабур в Индии было недолгим, заложенные им культурные основы оказали длительное влияние на развитие

региона. Его наследие продолжили Хумаюн, Акбар, Джахангир и Шах-Джахан, при которых культура Великих Моголов достигла наивысшего расцвета.

«Бабур-наме» стало образцом мемуарной литературы и оказало влияние на последующих историков и писателей. Поэтические традиции, поддерживаемые Бабуrom, способствовали развитию многоязычной литературы в Индии.

Захириддин Мухаммад Бабур вошёл в историю как выдающийся государственный деятель и талантливый представитель восточной литературы. Его творчество и культурная деятельность в Индии сыграли важную роль в формировании духовной и художественной среды Империи Великих Моголов.

Произведение «Бабур-наме» и поэтическое наследие Бабур являются ценными памятниками мировой культуры, отражающими сложный и многогранный характер эпохи. Таким образом, вклад Бабур в культуру Индии выходит далеко за рамки его политической деятельности и сохраняет своё значение до настоящего времени.

Список литературы

1. Бабур З. М. *Бабур-наме*.
2. Бартольд В. В. *Туркестан в эпоху монгольского нашествия*.
3. Хабибуллаев А. *История Империи Великих Моголов*.
4. Азимджанова С. *Литературное наследие Захириддина Бабур*.
5. Лал Р. *Культура Индии эпохи Моголов*.

Mening Vatanim Bobur merosi bilan faxrlanadi



**Usman Muhammad Pokiston, Laxor shahri,
Andijon Tibbiyot instituti 6-bosqich talabasi**

Biz Pokistonliklar ham Zahiriddin Muhammad Bobur ijodini faoliyatini bilamiz. Bobur Andijonda tug'ilgan bo'lsada, Xindistonda yashagan. Tarixiy manbalarda Bobur janglaridan biri "Laxor jangi" haqida o'qiganman. Bu jang hozirgi Pokiston hududida bo'lgan. Pokistonda "Laxor muzeyi" da Boburning urdu tilidagi ruboylari, qo'lyozmalar, tangalar, tarixiy materiallar mavjud. Ruboiylarda Boburning tole'sizligi, vatandan ketganligi, yurt sog'inchi ifoda etilgan.



**Muhammad Asif, Xindiston Xaryana sh.,
Andijon Tibbiyot instituti 5-bosqich talabasi**

Bobur Xindistonni madaniy va ma'rifiy jihatdan boyitdi deb o'qiganman. Xindiston xalqlariga mos bo'lgan fazilat va nuqsonlar, ularning tafakkur olami, o'sha davrdagi hayot muammolarini asarlarida yozgan. Bu sulola 300 yildan ortiq hukmronlik qilgan. Bobur Agra shahrida vafot etgan. Dexlida Boburning yodgorlik xaykali o'rnatilgan. Men Andijonda Bog'ishamol Bobur muzeyiga ham bordim. U yerda turli manbalarni ko'rdim.



**Sashant Zadafiya, Xindiston Gujarat sh.,
Andijon Davlat Tibbiyot instituti 4-bosqich talabasi**

Z.M.Bobur tarixiy shaxs. Xindistonda boburiylar sulolasiga asos solgan. Bilasizmi, xindistonda 6-7 sinfdan boshlab boburiylar hayoti o'rganiladi. Bizda bu sulolani "Buyuk mo'g'ullar" deb atashadi. Boburning nevarasi Shoxjaxon turmush o'rtog'i Mumtozmahalga atab qurilgan "Tojmahal" yodgorligi bilan biz xindistonliklar faxrlanamiz. Boisi juda go'zal mahobatli, ko'rkam, ko'p yillik tarixga ega yodgorlik. Shuning uchun juda ham ko'p sayyohlar tashrif buyuradi. Xindistonning Agra shahrida esa "Emperor Shax Jahan memorial museum" muzeyi tashkil etilgan.



MUALLIFLAR DIQQATIGA!

“BOBUR KUTUBXONASI” JURNALIDA MAQOLALARNI CHOP ETISH SHARTLARI

Chop etish uchun yuborilgan material yangi va boshqa nashrlarda chop etilmagan bo'lishi hamda jurnal yo'nalishiga mos kelishi kerak.

Tahririyat material jurnal yo'nalishiga mos kelishi to'g'risida mustaqil qaror chiqaradi va chop etishni rad qilish sabablarini tushuntirmaslik huquqiga ega.

Mualliflar to'g'risida ma'lumotlar:

Ismi, familiyasi, otasining ismi, asosiy ish (o'qish) joyi, ilmiy darajasi va unvoni, lavozimi;

Asosiy ish (o'qish) joyining pochta manzili; telefon raqamlari va elektron pochta.

Maqolaning tuzilishi:

Nomi: o'zbek, rus tillarida 6 so'zdan ko'p bo'lmasligi.

Maqola matni:

Kirish: masala (muammo)ning qo'yilishi, dolzarbligi, maqsadi, maqolaning tuzilishini tushuntirish.

Maqolani sahifalashtirish

Shrift va hajmi: MS word (.doc yoki .docx) formatida, Arial (11 pt.) shriftida, 1,15 interval bilan. Hajmi 2-6 sahifa oralig'ida yoki 3000 dan 20000 belgigacha bo'lishi lozim. Maqoladagi ma'lumotlar qaysi manbadan olinganligi (ssilka) ko'rsatilishi shart.

Grafik, chizma va jadvallar: Excel formatida, suratlar *.jpg, *.png formatida alohida faylda yuborilishi shart.



ПРИГЛАШАЕМ К СОТРУДНИЧЕСТВУ

Нашим автором может стать любой человек, профессия или увлечение которого связаны с книгой, с библиотекой.

Если вы решили отправить нам материал для размещения в журнале, то, прежде всего, необходимо проверить соответствие его следующим пунктам:

Материал представляется на одном из языков: узбекском или русском.

Он должен содержать сведения об авторе: имя, отчество и фамилию, место жительства, должность и место работы, контакт (телефон / электронная почта).

Название статьи не должно состоять из более, чем 6 слов с предлогами.

Материал не должен иметь менее 2 и более 6 страниц и быть ранее опубликованным или представленным в другом СМИ.

При обнаружении нарушения данного условия, материал снимается с опубликования.

Файл с материалом должен быть представлен в формате документа Microsoft Word, при этом рисунки и таблицы размещаются в тексте после ссылок на них, т. е. вся информация должна быть в одном файле. Статьи и другие материалы, представленные в редакцию, не возвращаются.

Шрифт текста: Arial, размер шрифта 11, межстрочный интервал 1,15.

Все страницы должны быть пронумерованы, иллюстрации, графики и таблицы расположены в соответствующих местах в тексте.

Каждый рисунок, график, таблица должны быть дополнительно представлены отдельным файлом в формате: *.jpg, *.png.



Kelgusi sonda: В следующем номере:

- ▶ На пути к читателю
- ▶ Zahiriddin Muhammad Bobur ruboiylarida vatan sog'inchi
- ▶ Sun'iy intellekt- neyrotarmog'ining ahamiyati va kutubxonalardagi o'rni
- ▶ Qalamingiz charchamasin
- ▶ Kutubxonachilik kelajak kasbimi? ...